



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER

ISSN 3060-5512



JOURNAL OF INNOVATION AND RESEARCH

INNOVATE, RESEARCH, AND
TRANSFORM THE WORLD



www.innores.uz



Tahririyat kengash raisi:

t.f.d. K.K.Yuldashev

Tahririyat a'zolari:

k.f.d., professor X.SH.Abdulloyev

t.f.d., dotsent G.J.Orazimbetova

t.f.d., dotsent D.I.Maxkamov

t.f.d., dotsent A.B.Yo'lchiyev

f-m.f.d., dotsent A.B.Yo'lchiyev

t.f.f.d., dotsent A.R.Baymirzayev

t.f.f.d., dotsent A.A.Sattarov

dotsent S.K.Ataxanova

Ilm va ta'limda olib botilayotgan amaliy va nazariy ishlar bo'yicha Respublika
jurnali (O'zbekiston)

Chop etilgan ilmiy maqolalar to'plami – bu talaba, o'qituvchi, fan nomzodlari, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy maqolalarini o'z ichiga olgan ilmiy-amaliy nashr hisoblanadi. Maqolalarda zamonaviy fanning tuzilishidagi jarayonlar va o'zgarishlarni aks ettiruvchi tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu ilmiy maqolalar to'plami talabalar, doktorantlar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar, amaliyotchilar va zamonaviy fanning rivojlanish tendensiyalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

To'plamda keltirilgan barcha materiallar mualliflarning asl holatida chop etilgan. Muharrirlar ilmiy maqolalarga o'zgartirish kiritmaydilar. Materiallarda chop etilgan ma'lumotlar uchun mas'uliyat mualliflarning o'zlariga yuklanadi.

ИССЛЕДОВАНИЕ И РАЗРАБОТКА НОВОГО СИЛОВОГО МЕТОДА ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ВНУТРЕННИХ НАПРЯЖЕНИЙ В КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ И ЛАКОКРАСОЧНЫХ ПОКРЫТИЯХ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В МАШИНОСТРОЕНИИ

С.С.Негматов, Т.У.Улмаксов,

Н.С.Абед, Б.М.Тожибоев

ГУП «Фан ва тараккиёт» ТГТУ им. И.Каримова

Для получения качественного полимерного покрытия с большим запасом прочности, кроме прочностных и адгезионных свойств, необходимо знать закономерности возникновения и изменения внутренних напряжений. Для определения внутренних напряжений в последнее время широко применяются оптические, механические и аналитические методы и установки на их основе.

Надо отметить, что существующие методы и установки не в полной мере качественно определяют значение внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях, особенно кинетику образования в процессе отверждения и в процессе понижения их в покрытиях. Поэтому возникает необходимость разработать более эффективный метод и установку для качественного определения внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях, позволяющих более точно определить её значение.

Наибольшее распространение получил консольный метод определения внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях металлов, когда напряжения определяют по отклонению свободного конца упругой пластинки с другим закрепленным концом.

В антикоррозийных покрытиях толщина пленки оказывает существенное влияние на долговечность.

С увеличением толщины покрытия, при постоянной толщине подложки, резко увеличивается величина погрешности при определении внутренних напряжений консольным методом.

Определение внутренних напряжений осуществляется следующим образом. На подложку прямоугольной формы длиной « l » и толщиной « t » наносится с одной стороны покрытие Δt . Образец одним концом неподвижно закрепляется в приборе. При отверждении покрытия в нем возникают растягивающие внутренние напряжения, которые изгибают подложку, отклоняя ее свободный конец от нулевого положения на величину « h » расчётная. схема которых показаны на рисунки 3.3




Рис.3.3. Расчетные схемы при определении внутренних напряжений консольным методом.

Внутренние напряжения консольным методом, разработанным профессором Санжаровским [1] определяются следующей формулой:

$$\sigma = \frac{hE_1 t^3}{3l^2(t + \Delta t)\Delta t} + \frac{hE_2(t + \Delta t)}{l^2} \quad (3.1)$$

Где Δt -толщина покрытия

t - толщина металлической подложки

L -длина испытуемого образца - пластинки с покрытием

B – ширина подложки

h - величина отклонения подложки с покрытием от нулевого положения

E_1 и E_2 – модуль упругости соответственно материала подложки и покрытия.

Так как модуль упругости покровной полимерной пленки E_2 примерно на два порядка меньше чем металлической подложки E_1 , то для тонких покрытий, при которых $t > 3\Delta t$, второй член в практических расчетах можно не принимать

во внимание. При этом ошибка не превысит 1% и расчет внутренних напряжений можно вести по упрощенной формуле

$$\sigma = \frac{hE_1 t^3}{3l^2(t + \Delta t)\Delta t} \quad (3.2)$$

где, E_1 и E_2 модуль упругости подложки и покрытия соответственно.

Учитывая [3-6] возникающие принципы работы консольного метода, а также уменьшения натяжения пленки в связи с изгибом подложки при консольном методе, приводящих к изменениям условий протекания релаксационных процессов в пленке, на базе этого метода нами совместно с учеными и научными сотрудниками в Гуп «Фан ва тараккиёт» Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова разработан силовой метод и сконструирована универсальная установка для измерения внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях на упругой металлической подложке, которые определяются по усилию развиваемому концом консольно закрепленного образца.

При этом основные параметры и геометрические формы установки для изучения внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях определены на основе исходных данных металлической подложки, измерительных, отсчитывающих устройств по конструктивным соображениям.

Замерив усилие на свободном конце подложки, можно определить внутренние напряжения в полимерных и лакокрасочных покрытиях. Однако, для практического вычисления внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях, необходимо предварительно определить величины значения модуля упругости покрытия в данных конкретных условиях. Определение модуля упругости покрытия на различных этапах эксперимента затруднительно.

По аналогии с биметаллическими элементами предлагается применять образцы, в которых отношение между толщиной полимерных и лакокрасочных покрытий и толщиной подложки выражается следующим уравнением:

$$\frac{\Delta t^2}{t^2} = \frac{E_1}{E_2} \quad (3.4)$$

Тогда уравнение для определения внутренних напряжений полимерных и лакокрасочных покрытиях упростится:

$$\sigma = \frac{P * l}{\Delta t * b} * \left[\frac{t}{3(t + \Delta t)^2} + \frac{1}{\Delta t} \right] \quad (3.5)$$

Обозначив:

$$K_0 = \frac{l}{\Delta t * b} \left[\frac{t}{3(t + \Delta t)^2} + \frac{1}{\Delta t} \right] \quad (3.6)$$

Тогда при определении внутренних напряжений в покрытиях предлагаемым нами силовым методом определяются по следующей формуле:

$$\sigma_{\text{вн}} = K_0 * P \quad (\text{МПа})$$

где, P- усилие, развиваемое свободным концом испытуемого образца возникающее в процессе отверждения полимерных и лакокрасочных покрытий на поверхности металлической пластинки.

Последнее уравнение удобно для расчетов при проведении экспериментов. Принятое допущение о постоянстве модуля упругости полимерных и лакокрасочных покрытий не приводит к большим ошибкам.

Так, при фактическом снижении модуля упругости полимерных и лакокрасочных покрытий на 50 % ошибка при определении внутренних напряжений в них составит всего 0,8%, а при снижении модуля упругости металлической подложки на 80%-не более 1,5%.

где, K_0 –коэффициент, учитывающий геометрические параметров подложки и покрытия.

Для разработки силового метода при определении значения P-усилие, развиваемые свободным концом испытуемого образца возникающие в процессе отверждения полимерных и лакокрасочных покрытий на поверхности металлической пластинки, основным характеризующим показателем является

деформационный модуль, роль которого исполняет обыкновенная стальная проволочная пружина, конструкция которой показана на рис 3.1




Рисунок 3.1 Конструкция стальной проволочной бытовой и цилиндрической пружины

Основными геометрическими параметрами винтовых цилиндрических пружин из проволоки круглого поперечного сечения являются:

d -диаметр проволоки.

D_H -ноаружный диаметр пружины:

D -средний диаметр пружины:

t -шаг пружины:

α -угол подъёма витков:

L -длина развернутой пружины

Необходимо отметить, что основной характеристикой пружины является ее податливость, величина которой прямо пропорциональна индексу пружины C ,

C индекс значение зависит от соотношения

$$C = \frac{D}{d}$$

от диаметра проволоки пружины и наружного диаметра пружины которые приведены ниже.

Таблица 3.1

d	<2,5	3-6	6-12	C=D/d
C	5-12	4-10	4-9	

Обычно, при изменении силы пружины от P_1 до P_2 жёсткость пружины определяется по формуле.

$$Z = (P_2 - P_1) / h$$

где, P_1 -преварительная деформация обычно определяется по формуле

$$P_1 = (0,1/0,5) P_2$$

P_2 -рабочая деформация соответствует наибольшему принудительному перемещению подвижного звена.

h -рабочий ход пружины, величина которого вычисляется по условиям работы установки.

Жёсткость одного витка пружины определяется по формуле:

$$Z_1 = Gd / 8c^3,$$

где, c - индекс пружины (значения приведены в таблице)

где, G -модуль сдвига материала проволоки пружины.

Для стали $G=8000 \text{ кгс/см}^2$ и, следовательно для стальной пружины

$$Z_1 = 1000d / c^3,$$

где, Z_1 -кгс/мм d -мм.

Деформация пружины определяется следующим образом: (мм)

$$F = P / Z,$$

При этом усиже P определяет следующей $P=F \cdot Z (H)$

Усилие P определяется при неизогнутом образце, что дает возможность изучить кинетику изменения внутренних напряжений при полном натяжении пленки, т.е. в условиях, приближающихся к эксплуатационным состояниям.

Таким образом, внутренние напряжения полимерных и лакокрасочных покрытий по силовому методу определяется по формуле:

$$\sigma_{\text{вн}} = K_o \cdot F \cdot Z = \frac{l}{\Delta t \cdot b} \left[\frac{t}{3(t + \Delta t)^2} + \frac{1}{\Delta t} \right]$$

Релаксационные процессы при этом протекают при напряжениях больших, чем при консольном методе.

По аналогии с образцами нормального биметалла, образцы с антикоррозийными покрытиями, параметры которых подчиняются выше-приведённому соотношению, названы также нормальными покрытиями.

В практическом отношении возникновение внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях приводит к ухудшению их адгезионных и когезионных свойств и соответственно снижению работоспособности и долговечности, для чего необходимо будет глубоко изучать возникновение внутренних напряжений в покрытиях в зависимости от их состава и влияние технологических режимов их получения.

Существующие методы и установки не полной мере качественно определяют значение внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях. В связи с этим, возникает необходимость разработать более эффективный метод и установки для определения внутренних напряжений в полимерных и лакокрасочных покрытиях, которые позволили бы более точно определить их значение.

Учитывая [2,3], что предложено принимать внутренние напряжения в качестве критерия для оценки долговечности полимерных и лакокрасочных покрытий, для разработки покрытий с высокой долговечностью можно ограничиваться изучением и определением внутренних напряжений в получаемых покрытиях.

Поэтому для разработки полимерных и лакокрасочных покрытий с высокими адгезионными и физико-механическими свойствами необходимо проведение глубоких исследований возникновения внутренних напряжений и изучение на создаваемом новом методе и установке, позволяющих разработать полимерных и лакокрасочных материалов на их основе с высоким работоспособности и долговечностью.


С целью изучения возникновения внутренних напряжений и разработки нового метода и установок ниже приведены результаты работ по разработке оригинальной установки для определения в полимерных лакокрасочных покрытиях по методу, усиления развиваемому концом консольное закрепленного образца.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Санжаровский А.Т. Физико-механические свойства полимерных покрытий. М., Изд-во «Химия», 1978, 184с., 1.146-148.
2. Остриков М. С., Духнина Т. П., Леви С. М. — Ж. науч. прикл. фотогр. и кинематогр., 1964, т. 9, с. 259.
3. Schondorn H. – J.Polymer Sci., 1967. pt B, vol. 5. N 10, p.912.
4. Негматов С.С., Т.У. Улмасов, Н.С. Абед, О.Ш. Сабирова, Б.Т. Хаминов, Ф.М. Наврузов, С.Х. Абдулаев, К.Х. Масодиков, З.У. Махамаджонов, С.С. Жовлиев, Ф.Р. Иксанов. Консольный метод определения внутренних напряжений в полимерных, эмалевых и лакокрасочных покрытиях. // Международная научно-техническая конференция. / Композиционные материалы на основе техногенных отходов и местного сырья: состав, свойства и применение 16-17 сентября 2021 года. – С. 126-128.
5. Тожибоев Б.М., Рахимов Ш.В., Улмасов Т.У., Негматов С.С., Рахимов С.Э., Олмасов А.А., Абед Н.С., Бозорбоев Ш.А., Масодиков К.Х., Сабирова О.Ш., Икромов Н.А. Состояние и анализ методов определения внутренних

напряжений полимерных и лакокрасочных покрытий, // Композиционные материалы, Ташкент, 2022, - №3, – С. 230-232.

6. Негматов С.С., Масодиков К.Х., Жалилов Ш.Н., Рахмонов Ш.В., Негматов К.С., Абед Н.С., Икромов Н.А., Тожибоев Б.М., Пирматов Р.Х., Султанов С.У., Собирова О.Ш., Рахимов Ш.Э., Улмасов А.А., Махамаджонов Х.А., Исследование тепловой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих // UNIVERSUM: технические науки» 2022,- №11, – С. 47-53.



FAOLLASHTIRILGAN MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARI ASOSIDA DONADOR FOSFORLI O'G'IT OLISH TEXNOLOGIYASI

U.M.Turdialiyev t.f.d., professor

Z.M. Oripova tayanch doktorant,

e-mail: zarnigorxonoripova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada past navli Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida samarali va ekologik xavfsiz donador fosforli o'g'itlar olish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilingan. Fosforitlarni fizik-kimyoviy faollashtirish usullari, ularni granulalash texnologiyasi va agrokimyoviy samaradorligi yoritilgan. Mahalliy xomashyo-kul va fosforit asosida arzon, yuqori samarali o'g'it olish yo'llariga ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье проанализирована существующая литература по получению эффективных и экологически безопасных гранулированных фосфорных удобрений на основе низкосортных фосфоритов Центрального Кызылкума. Освещены методы физико-химической активации фосфоритов, технология их гранулирования и агрохимическая эффективность. Анализируются научные подходы к способам получения недорогих, высокоэффективных удобрений на основе местного сырья-золы и фосфоритов.

Abstract: This article analyzes the existing literature on obtaining effective and environmentally friendly granular phosphorus fertilizers based on low-grade phosphorites from the Central Kyzylkum. It covers the methods of physical and chemical activation of phosphorites, the technology of their granulation, and their agrochemical efficiency. The article also analyzes scientific approaches to obtaining inexpensive and highly effective fertilizers based on local raw materials such as ash and phosphorite.

Kalit so'zlar: fosforit, faollashtirish, granulyatsiya, kul, kislotali ishlov, P_2O_5 , kalsinatsiya, eruvchanlik.

Ключевые слова: фосфорит, активация, грануляция, золакислотная обработка, P_2O_5 , прокаливанию, растворимость.

Keywords: phosphorite, activation, granulation, ash, acid treatment, calcination, solubility.

Bugungi kunda dunyo aholisining jadal o'sishi va global iqlim o'zgarishlari jarayonida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib Yer aholisining soni 9 milliarddan oshishi kutilmoqda. Bu esa dehqonchilikda hosildorlikni oshirishni, shuningdek, yer unumdorligini saqlab qolish uchun zamonaviy va samarali agrotexnik vositalardan, xususan, mineral o'g'itlardan keng foydalanishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, fosforli o'g'itlar - o'simliklarning ildiz tizimi rivojlanishi, gullashi va hosil berishida hal qiluvchi asosiy agroximik vositalardan biridir. Afsuski, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan fosforit konlari asosan past navli, ya'ni kam eruvchan bo'lib, ulardan bevosita foydalanish cheklangan.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu past navli fosforitlarni faollashtirish orqali ularning suvda eruvchanligini oshirib, qishloq xo'jaligida samarali o'g'itga aylantirish yo'llari ko'plab o'rganilgan. Ayniqsa, mahalliy chiqindilar- o'simlik kuli sanoat chiqindilar- o'simlik kuli, sanoat chiqindilari, va kislotali eritmalardan foydalanib, arzon va samarali donador fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish istiqbollari haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston hududida joylashgan Markaziy Qizilqum cho'l hududida ko'plab past navli fosforit konlari mavjud. Ushbu fosforitlar odatda 12–18% atrofida P_2O_5 ga ega bo'lib, kam eruvchanligi sababli to'g'ridan-to'g'ri qishloq xo'jaligida ishlatish cheklangan (Yuldashev, 2007). Bugungi kunda ekologik xavfsiz va arzon o'g'it olish uchun bu turdagi xomashyolardan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Shu maqsadda, ilmiy manbalarda fosforitlarni faollashtirish, kislotali va issiqlik ishlovlari, kul bilan aktivlashtirish, va granulatsiya orqali o'g'it shakllantirish kabi yo'nalishlar keng o'rganilmoqda (Sattorov, 2015; Hamidov va Tursunov, 2021). Ushbu maqola ana shunday tadqiqotlar tahliliga bag'ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili uchun Scopus, Google Scholar, eLibrary.ru, ResearchGate hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashrlari bazalarida chop etilgan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, GOST va texnik reglamentlar tahlil qilindi.

Fosforitlarni faollashtirish usullari

Fosforitlarni faollashtirish ikki asosiy usul bilan amalga oshiriladi:

-termik faollashtirish – 800–1000 °C da kalsinatsiya (Sharma, 2019).

-kimyoviy faollashtirish – H_2SO_4 yoki H_3PO_4 bilan ishlov (Sattorov, 2015; Muminov, 2012). Ushbu jarayonda kam eruvchan $Ca_{10}(PO_4)_6F_2$ strukturasi suvda eruvchan $Ca(H_2PO_4)_2$ va $CaHPO_4$ ga aylantirish maqsad qilingan.

Kul yordamida faollashtirish

Biomassalardan olingan kul (g'oz, bug'doy, makkajo'xori poyasi) tarkibida ishqoriy oksidlar (K_2O , SiO_2 , Na_2O) mavjud. Ular fosforit strukturasi kirib, reaksiyani faollashtiradi (Kim & Gromov, 2018; Xu & Li, 2020).

Tursunov va hammualliflar (2022) tomonidan kul va sanoat chiqindilari bilan faollashtirilgan fosforit asosida donador o'g'it olish bo'yicha texnologiya ishlab chiqildi. Natijalarga ko'ra, hosil bo'lgan granulalar 35–40% suvda eruvchan P_2O_5 ga ega bo'lgan.

Granulatsiya va mahsulot sifatini baholash

Granulatsiya jarayoni disk yoki barabanli granulyatorlarda amalga oshiriladi. Mahsulot sifat ko'rsatkichlari quyidagicha nazorat qilinadi (Temirov va boshq., 2020):

- granula diametri: 2–4 mm
- umumiy va eruvchan P_2O_5 miqdori (GOST 20851.2–75)
- pH, namlik, mexanik mustahkamlik (GOST 21560.0–82)

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Qizilqum fosforitlarini faollashtirish va granulatsiya qilish orqali yuqori samarali, mahalliy xomashyo asosidagi donador fosforli o'g'it olish mumkin. Kul, kislotali ishlovlar va texnologik qurilmalar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar ushbu yo'nalishda keng istiqbollarga ega. Bo'lajak tadqiqotlar kul turlari, kislotali nisbatlar va agrokimyoviy samaradorlikni yanada chuqur tahlil qilishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. .

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юлдашев А.Ю. Активизация фосфоритов и получение комплексных удобрений. – Ташкент: Фан, 2007. – 126 с.
2. Sharma R.K. Non-conventional phosphate fertilizers: A review. – International Journal of Agriculture and Chemistry, 2019, Vol. 5(2), pp. 75–82.
3. Сатторов С.С. Разработка технологии обогащения и активизации фосфоритового сырья Кызылкумов. – Автореф. дисс. к.т.н. – Ташкент, 2015. – 23 с.
4. Муминов Ж.М. Получение удобрений из низкосортного фосфоритового сырья. – Ташкент: Университет, 2012. – 88 с.
5. Hamidov A., Tursunov M.M. Development of phosphor fertilizer by activation of low-grade rock phosphate. – Eurasian Chemico-Technological Journal, 2021, Vol. 23(3), pp. 289–296.
6. Ким А.Н., Громов А.Ф. Применение золы для улучшения усвояемости фосфатов. // Химическая технология. – 2018. – №4. – С. 25–30.
7. Xu G., Li D. Use of biomass ash in phosphate fertilizer production. – Journal of Cleaner Production, 2020, Vol. 244, 118723.
8. Tursunov M.M. et al. Activation of low-grade phosphorite with acid residues for granulated fertilizer production. – Chemistry and Technology, 2022, №3(89), pp. 32–38.
9. ГОСТ 21560.0–82. Минеральные удобрения. Методы испытаний. Общие требования. – М.: Изд. стандартов, 1983.
10. Temirov B. va boshq. Fosforli o'g'itlarning fizik-kimyoviy xossalari. – Toshkent: "Fan", 2020. – 112 b.

PORTLAND CEMENT ISHLAB CHIQUARISHDA XOM ASHYOGA QO'YILADIGAN TALABLARNI TEKSHIRISH

Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna

Andijon davlat texnika institute

Kimyo va kimyo texnologiyalari kafedrası mudiri

Texnika fanlari doktori

Otaqo'ziyev Akramjon Adaxamjonovich

Andijon davlat texnika institute

Tayanch doktorant

Abstract:

This article studies the chemical composition and physical properties of limestone and clay soils used as raw materials in Portland cement production. It also analyzes the compliance of these materials with national standards O'z DSt 2950 and O'z DSt 2801:2013 and demonstrates the importance of the liquid phase in the production of sulfate-resistant cement.

Keywords: Portland cement, limestone, clay, liquid phase, GOST, O'z DSt 2950, sulfate-resistant cement

Аннотация:

В данной статье рассматриваются химический состав и физические свойства известняка и глинистых почв, используемых в качестве сырья для производства портландцемента. Также анализируется соответствие этих материалов государственным стандартам O'z DSt 2950 и O'z DSt 2801:2013 и показана важность жидкой фазы при производстве сульфатостойкого цемента.

Ключевые слова: портландцемент, известняк, глина, жидкая фаза, ГОСТ, O'z DSt 2950, сульфатостойкий цемент

Annotatsiya: Mazkur maqolada Portland sement ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladigan oxaktosh va ogarkini tuproqlarining kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o'rganiladi. Shuningdek, ushbu materiallarning O'z DSt 2950 va O'z DSt

2801:2013 davlat standartlariga muvofiqligi tahlil qilinadi hamda sulfatbardosh sement ishlab chiqarishda suyuqlanish fazasining ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Portland sement, oxaktosh, ogarkini, suyuqlanish fazasi, GOST, O'z DSt 2950, sulfatbardosh sement

Kirish Portland sement qurilishda eng ko'p ishlatiladigan bog'lovchi materialdir. Sement sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri bu xom ashyolarning tarkibi va ularning standartlarga mosligidir. Xususan, oxaktosh va ogarkini tuproqlari ushbu materiallar sirasiga kiradi. Maqolada ushbu xom ashyolarning O'z DSt 2950 hamda O'z DSt 2801:2013 talablariga muvofiqligi ilmiy asosda baholanadi.

1. Tadqiqot materiallari va metodlari Tadqiqotda oxaktosh va ogarkini tuprog'idan olingan namunalar asosida ularning kimyoviy tarkibi laboratoriyada aniqlanib, mavjud davlat standartlari bilan solishtirildi.

2. Tadqiqot natijalari

2.1. Oxaktosh va ogarkini tarkibi

Komponentlar	Oxaktosh (%)	Ogarki (%)
CaO	55.04	2.50
SiO ₂	0.82	52.10
Fe ₂ O ₃	10.00	4.90
Al ₂ O ₃	3.50	13.70
MgO	1.60	1.10
LOI (yo'qotish)	28.00	25.00

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, oxaktosh CaO manbai sifatida, ogarkini esa SiO₂ va Al₂O₃ manbai sifatida sement xom ashyosiga qo'shilishi mumkin.

2.2. O'z DSt 2950 talablariga moslik (Jadval 2)

Ko'rsatkichlar	Minimal (%)	Maksimal (%)
CaO	40	65
MgO	-	5.0
SiO ₂ + Al ₂ O ₃ + Fe ₂ O ₃	70	-

2.3. O'z DSt 2801:2013 talablariga muvofiqlik (Jadval 3)

Mineral fazalar	Tavsiya etilgan miqdor (%)
C3S	≤ 50
C2S	20–30
C3A	≤ 5
C4AF	10–20

2.4. Suyuqlanish fazasi va harorat Jitkiy faza – bu sement ishlab chiqarish jarayonida klinker tarkibida eruvchi komponentlar aralashmasi bo'lib, asosiy fazalarni birlashtirishda xizmat qiladi. Bu faza 1350–1450 °C da shakllanadi. Havo oqimini nazorat qilish – issiqlik tarqalishini me'yorlashtirish va suyuqlanish bosqichining barqaror kechishini ta'minlaydi. Aynan shu haroratda C3S, C2S va boshqa birikmalar kristallanadi.

3. Muhokama Oxaktosh va ogarkini tarkibining standartlar asosida tahlili ushbu materiallarni sement ishlab chiqarishda kompozit xom ashyo sifatida qo'llash imkonini beradi. Oxaktoshning CaO miqdori 55.04% bo'lib, bu uni asosiy komponent sifatida ishlatish imkonini beradi. Ogarkini esa yuqori SiO₂ va Al₂O₃ tarkibi bilan suyuqlanish fazasini barqarorlashtiradi.

4. Xulosa Tadqiqot natijalariga ko'ra, oxaktosh va ogarkini kombinatsiyasi O'z DSt 2950 va O'z DSt 2801:2013 talablariga javob beradi. Sulfatbardosh sement ishlab chiqarishda ularning tarkibi optimal natija beradi. Suyuqlanish fazasining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan harorat (1350–1450 °C) va havo oqimining muvofiqligi jarayon sifatini belgilovchi muhim omillardir.

5. Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘z DSt 2950:2015 – “Sement ishlab chiqarish uchun xom ashyo” davlat standarti.
2. O‘z DSt 2801:2013 – “Sulfatga chidamli portlandsement” davlat standarti.
3. GOST 22266-94 – “Texnik shartlar bo‘yicha sementlar” (Rossiya).
4. Qurilish materiallari texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2020
5. ОРАЗЫМБЕТОВА, Г., ИСКАНДАРОВА, М., & АДЫЛОВ, Д. СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ ВЫСОКОКРЕМНЕЗЕМИСТЫХ КЛИНКЕРОВ ИЗ ДВУХКОМПОНЕНТНЫХ СЫРЬЕВЫХ СМЕСЕЙ, СОДЕРЖАЩИХ МЕРГЕЛИ И БАРХАННЫЙ ПЕСОК КАРАКАЛПАКСТАНА. ФИЗИЧЕСКАЯ ХИМИЯ, 14.
6. Adaxamjonovich, O. Z. A. (2025, March). THE ROLE OF GYPSUM IN THE FORMATION OF PORTLAND CEMENT. In Innovative Practices and Research Conference (France) (Vol. 1, No. 1, pp. 190-192).
7. Otaqoziyev, T. A., & Otaqo‘ziyev, E. T. (2005). Bog'lovchi moddalarning kimyoviy texnologiyasi. Toshkent," Cho'lpon.
8. Otaqo‘ziyev, T. Q. E., & Qosimov, E. (1984). Mineral bog ‘lovchilar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar. T., O ‘qituvchi.
9. Sevinch, M. (2024). O ‘TDA TUG ‘ILGAN TOSH ELIM (portlandtsement ishlab chiqarish sirlari). MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(4), 866-869.
10. Ibragimovich, S. B., & Qiyom o‘g, T. U. B. (2022). QASHQADARYO VILOYATIDA MAVJUD MAHALLIY XOM ASHYOLAR ASOSIDA PORTLANDSEMENT OLISHNI TADQIQOTLASH. Gospodarka i Innowacje., 22, 482-485.
11. RAMAZANOV, S., NABIYEV, A., & ARIPOVA, M. (2024). DEVELOPMENT OF CLINKER AND PORTLAND CEMENT COMPOSITION BASED ON SURKHONDARYO RAW MATERIALS. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2023(4), 2

4-SINF “TARBIYA” DARSİ JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOİY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Rajabova Xurshida Hakimovna
Qashqadaryo VPMM Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
xurshidarajabova46@mail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida, xususan 4-sinf “Tarbiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Ijtimoiy ko‘nikmalar tushunchasi, ularning turlari, ahamiyati hamda ularni shakllantirish usullari pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Amaliy tavsiyalar va samarali metodlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ko‘nikmalar, tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, 4-sinf, metod, hamkorlikda o‘qitish, tarbiyaviy jarayon.

Abstract: This article discusses the issues of forming social skills in students in the primary education system, in particular in the 4th grade "Education" subject. The concept of social skills, their types, importance, and methods of their formation are analyzed based on pedagogical and psychological approaches. Practical recommendations and effective methods are presented.

Keywords: social skills, upbringing, primary education, 4th grade, method, collaborative learning, educational process.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития социальных навыков у учащихся в системе начального образования, в частности в рамках предмета «Образование» в 4 классе. На основе педагогических и психологических подходов анализируются понятие социальных навыков, их виды, значение и методы формирования. Даны практические рекомендации и эффективные методы.

Ключевые слова: социальные навыки, воспитание, начальное образование, 4- класс, метод, совместное обучение, образовательный процесс.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki o'quvchining jamiyatda munosabat o'rnatish, guruhda ishlash, muloqot qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalari ham alohida ahamiyatga ega. Aynan "Tarbiya" fani bu yo'nalishda asosiy vositalardan biridir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — bolalar shaxsining shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda o'quvchilarda asosiy axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy fazilatlar, jamiyatga moslashish ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan "Tarbiya" fani bolalarni jamiyat hayotiga tayyorlash, ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Ijtimoiy ko'nikma nima?

Ijtimoiy ko'nikmalar — bu shaxsning boshqa insonlar bilan ijobiy munosabat o'rnatish, jamiyat qoidalari va axloqiy me'yorlarga rioya qilish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash, to'g'ri muloqotga kirishish, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi xatti-harakatlari va odatlaridir.

Bu ko'nikmalar bolalarda ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar va jamoaviy xulq shakllanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy ko'nikmalar quyidagilarga bo'linadi:

Kommunikativ ko'nikmalar – tinglay olish, o'z fikrini ifoda eta olish, savol-javobga kirisha olish.

Hamkorlik ko'nikmalari – jamoada ishlay olish, liderlik va mas'uliyatni bo'lishish.

Shaxslararo munosabatlar – hurmat, sabr, empatiya (boshqalarning holatini tushunish).

Axloqiy-ijtimoiy ko'nikmalar – odob, madaniyat, halollik, boshqalarga yordam berish.

Tarbiya fanida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati

Tarbiya fani o'quvchilarda faqat odob va axloqiy tushunchalarni shakllantirib qolmay, balki ularni amaliy faoliyatga tatbiq etishga, kundalik hayotda ulardan foydalanishga o'rgatadi. 4-sinf o'quvchilari yosh jihatdan aynan ijtimoiy ong shakllanish bosqichida bo'lib, ular o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglay boshlaydi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar tushunchasi va turlari

Ijtimoiy ko‘nikmalar — bu shaxsning jamiyatda to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, axloqiy me‘yorlarga rioya qilish, guruhda faol ishtirok etish, o‘z fikrini bildirib olish, hamkorlikda ishlash kabi malaka va odatlaridir. Ular quyidagilarga bo‘linadi:

Kommunikativ ko‘nikmalar – muloqot, fikr almashish, tinglash.

Hamkorlik ko‘nikmalari – jamoada ishlash, liderlik, mas’uliyat.

Shaxslararo ko‘nikmalar – hurmat, sabr-toqat, empatiya.

Axloqiy-ijtimoiy ko‘nikmalar – odob, halollik, madaniyat, odatiy xulq-atvor.

“Tarbiya” fanining ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantirishdagi roli

4-sinf “Tarbiya” fanida quyidagi mavzular ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishiga xizmat qiladi:

Odob va odatlar;

Vatanparvarlik va sadoqat;

Mehr-oqibat va hurmat;

Jamiyatda o‘z o‘rningni topish;

Do‘stlik va hamkorlik.

Bu mavzular orqali o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, ijtimoiy rol va mas’uliyatni his qilishga o‘rganadilar.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari

4-sinf o‘quvchilari yoshiga xos psixologik xususiyatlardan kelib chiqib, quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Rol o‘yinlari (Rolli o‘yinlar)

O‘quvchilar “mehmon kutish”, “do‘st bilan nizoni hal qilish”, “do‘konda xarid qilish” kabi vaziyatlarda o‘z rollarini bajarish orqali ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

2. Munozara va savol-javob usuli

“Odob nima?”, “Do‘stlikda qanday xatti-harakatlar muhim?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslash, boshqalarni tinglash, mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

3. Masalaga asoslangan o‘qitish (Problem-based learning)

Haqiqiy hayotiy muammolar muhokamasi: “Agar sen do‘sting bilan urishib qolsang, nima qilarding?”, “Agar kimdir navbatga rioya qilmasa-chi?” kabi savollar orqali tanqidiy fikrlash va ijtimoiy xulq shakllantiriladi.

4. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati (Kooperativ o‘qitish)

Guruhda ishlash, jamoa topshiriqlarini bajarish orqali o‘quvchilar bir-biriga yordam berish, mas’uliyatni bo‘lishish, fikrlarni uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar.

5. Badiiy matnlar asosida tarbiya berish

Hikoyalar, ertaklar, maqollar, she‘rlar orqali axloqiy-ijtimoiy tushunchalar mustahkamlanadi. Matn asosida savol-javob va tahlil o‘tkaziladi.

6. Aqliy hujum (Brainstorming)

O‘quvchilar berilgan masala yuzasidan ko‘plab fikrlar aytadilar. Bu usul ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

7. Namuna ko‘rsatish (Modeling)

O‘qituvchi yoki o‘quvchilarning ijobiy xulq-atvorini boshqalarga namunaviy tarzda ko‘rsatish orqali axloqiy va ijtimoiy me‘yorlar o‘rgatiladi.

Amaliy tavsiyalar

Darslar interaktiv shaklda, bolalarning faol ishtiroki asosida tashkil etilishi kerak.

Har bir mavzu hayotiy misollar bilan boyitilsin.

O‘quvchilar o‘z tajribalarini aytib berishga undalsin.

Tarbiyaviy tadbirlar (sinf soatlari, ekskursiyalar) bilan uyg‘unlikda olib borilsin.

Tarbiya fanida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati

Tarbiya fani o‘quvchilarda faqat odob va axloqiy tushunchalarni shakllantirib qolmay, balki ularni amaliy faoliyatga tatbiq etishga, kundalik hayotda ulardan foydalanishga o‘rgatadi. 4-sinf o‘quvchilari yosh jihatdan aynan ijtimoiy ong shakllanish bosqichida bo‘lib, ular o‘zini jamiyat a‘zosi sifatida anglay boshlaydi.

Tarbiya fanida: o‘quvchi o‘zining oiladagi, sinfdagi, jamiyatdagi o‘rnini anglaydi;

-me'yor va qoidalarga bo'ysunishni o'rganadi;

-boshqalar bilan til topishish va muloqot qilishni o'zlashtiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan usullar

Quyida "Tarbiya" fanida o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beruvchi asosiy samarali usullar keltiriladi:

1. Hayotiy vaziyatlar asosida tahlil (Case study)

Real hayotiy vaziyatlar (masalan: "navbatda turish", "do'st bilan kelishmovchilik", "mehribonlik") asosida muhokama olib borish. Bu usul orqali bolalar o'z fikrini aytish, qaror qabul qilish va empatiya tuyg'usini rivojlantiradilar.

2. Rol o'yinlari

O'quvchilar hayotdagi ijtimoiy rollarni o'ynaydi: ota-onalar, do'stlar, sotuvchi-mijoz, maktabdagi vaziyatlar va h.k. Bu ularda muloqot qilish, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yish (empatiya), muomala madaniyatini o'rgatadi.

3. Munozara (diskussiya)

Mavzular yuzasidan guruhda yoki sinfda fikr almashish, turli nuqtayi nazarlarni tinglash va tahlil qilish orqali toleransiya (boshqalarga toqat) va hamkorlik rivojlanadi.

4. Hamkorlikda o'qitish usuli

Guruhli ishlar orqali bolalar bir-biriga yordam berish, mas'uliyatni bo'lishish, yetakchilik va itoatkorlik muvozanatini saqlashni o'rganadilar.

5. Tarbiyaviy ertak va hikoyalardan foydalanish

Badiiy asarlar orqali ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar bolalarning ongiga singdiriladi. Ertaklar va hikoyalar orqali saboq chiqarish, savol-javob orqali bahs qilish usullari qo'llaniladi.

6. O'rnak ko'rsatish (Modeling)

O'qituvchining yoki mashhur shaxslarning ijobiy xulq-atvori namuna qilib ko'rsatiladi. Bu usul orqali o'quvchi ko'rgan ijobiy namunani o'z hayotida takrorlashga harakat qiladi.

7. Odobli xatti-harakatni rag'batlantirish

Ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni doimiy tarzda tan olish, maqtash, kichik sovg'a yoki yulduzcha kabi rag'batlantirishlar orqali mustahkamlash kerak.

Tavsiyalar

Har bir darsda ijtimoiy vaziyatlarga oid topshiriqlar bo'lishi lozim.

Tarbiya darslari interaktiv va bolalar faol qatnashadigan shakllarda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Bolalarga savol berishdan ko'ra, ularni o'ylashga va fikr aytishga undovchi topshiriqlar ko'proq bo'lsin.

O'quvchilar o'z hayotiy tajribasini baham ko'rishiga imkon yaratilishi kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy mavzularda suhbatlar va tadbirlar o'tkazilishi foydalidir.

Xulosa

4-sinfda "Tarbiya" fanini o'qitishda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish darsning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Shunga mos ravishda o'qituvchi zamonaviy pedagogik metodlardan foydalangan holda o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashi, ularda jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini mustahkamlashi muhimdir.

Ijtimoiy ko'nikmalar bolalarni jamiyatga tayyorlaydi, ularda muloqot, hurmat, hamkorlik, sabr-toqat, mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Tarbiya fanida bu ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan turli zamonaviy metodlar va interaktiv usullardan foydalanish yuqori natija beradi. O'quvchilar ijtimoiy faol, madaniyatli va o'z fikriga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiya darslari hayotiy va amaliy bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda mualliflik ertaklaridan foydalanish, 277-278-b

2. Международный научный журнал "Научный импульс" № 5 (100), часть 1 Январь, 2023, Raxmonova Mavluda Suvon qizi,


3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish, 559-b kompetensiyalarini

4. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, J.Xudoyqulov, usullari,14-b

5. Ro‘ziyeva D va b. 3-sinf tarbiya fani darsligi. T. “Sano-standart”. 2020 y.

6. Shermuxamedova S va b. 4-sinf tarbiya fani darsligi. T. “O‘zbekiston” 2020 yil

7. Almardanovna, S. D., & Shokirovna, A. M. (2025). The Effectiveness of Increasing Students' Cognitive Activity in Primary Education. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 39, 66-70.



ROSSIYA IMPERIYASINING FARG‘ONA VILOYATIDAGI MOLIYA VA SOLIQ SIYOSATI

Adashaliyev Azizbek Zafarjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi
azizbekadashaliye1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston, xususan, Farg‘ona viloyatidagi iqtisodiy, moliya va soliq siyosatining mohiyati, bosqichlari va oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada imperiya tomonidan olib borilgan fiskal siyosat, soliq tizimining shakllanishi, yer va jon solig‘i kabi soliq turlari, byudjet daromadlarining o‘sishi, moliya boshqaruvi va bank tizimining tashkil topishi bo‘yicha tarixiy dalillarga asoslangan ilmiy izohlar berilgan. Shuningdek, mahalliy aholining iqtisodiy ahvoli, soliqqa tortishdagi tengsizliklar, zo‘ravonlik siyosati va mustamlakachilik natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy bosimlar yoritilgan. Manba va arxiv hujjatlaridan foydalanilgan holda imperiyaning moliyaviy manfaatdorligi bilan Turkiston o‘lkasidagi ekspluatatsiya siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, Farg‘ona viloyati, soliq siyosati, moliya boshqaruvi, bank tizimi, mustamlaka, jon solig‘i, yer solig‘i, iqtisodiy ekspluatatsiya, rubl zonasi, fiskal siyosat.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность, этапы и последствия экономической, финансовой и налоговой политики Российской империи в Туркестане, в частности в Ферганской области. Раскрываются особенности фискальной политики, формирования налоговой системы, видов налогов (например, подушного и поземельного), а также рост доходов бюджета и создание системы управления финансами и банков. Особое внимание уделено экономическому положению местного населения, налоговому неравенству, насильственным методам управления и социальному давлению, вызванному колониальной политикой. На основе архивных данных и источников показана

связь между финансовыми интересами империи и эксплуататорской политикой в Туркестанском крае.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестан, Ферганская область, налоговая политика, финансовое управление, банковская система, колония, подушный налог, поземельный налог, экономическая эксплуатация, рублевая зона, фискальная политика.

Abstract. This article explores the essence, stages, and consequences of the economic, financial, and taxation policies of the Russian Empire in Turkestan, particularly in the Fergana region. It discusses fiscal strategies, the formation of the taxation system, types of taxes such as land and poll taxes, the growth of state revenue, and the establishment of financial administration and banking institutions. Special attention is given to the economic condition of the local population, tax inequalities, coercive governance, and social pressures resulting from colonial policy. Based on archival sources, the article highlights the link between the empire's financial interests and its exploitative policies in Turkestan.

Keywords: Russian Empire, Turkestan, Fergana region, taxation policy, financial administration, banking system, colony, poll tax, land tax, economic exploitation, ruble zone, fiscal policy.

Rossiya imperiyasining Turkiston general hukumatidagi soliq siyosati inglizlarning Britaniya Hindistonidagi siyosatidan keskin farq qilar edi. Imperiyalarning soliq siyosati mustamlakalardagi fiskal va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi manfaatlariga bog'liq edi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida o'lkaning iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda yumshoqroq soliq siyosatini olib borishga harakat qildi. Inglizlar esa Hindistonda iqtisodiyotning xususiy sektorini rivojlantirish va bozor munosabatlarini joriy etishni ta'kidlab, soliq tushumlarini ko'paytirishga intildilar. Rossiyaning iqtisodiy siyosati mintaqada soliqqa tortishni bosqichma-bosqich oshirish orqali Turkistonning rentabelligini oshirishga qaratilgan edi. Rossiya kichik mulkdorlarning fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga e'tibor qaratdi, mintaqada yirik yer egaliklarining paydo bo'lishiga

to'sqinlik qildi va rus manufakturasining asosiy iste'molchisi bo'lgan aholining xarid qobiliyatini oshirishni rag'batlantirdi.

Shu o'rinda Rossiya senatori K.K.Palening Turkistondagi mustamlakachi ma'muriyatining maqsadlarini ifodalovchi quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Rossiyaga qo'shib olingandan keyin o'lkada rus hukumati uchun ikki manfaat, birinchidan moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlat daromadi va ichki ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun yangi bozor, ikkinchidan, mustamlakachilik nuqtai nazaridan imperiyani markaziy rayonlaridagi zich aholini joylashtirish uchun yangi hudud hisoblanadi".

Metropoliya doimiy ravishda mustamlaka ma'muriyati oldiga soliq tushumlarini ko'paytirish vazifasini qo'yib, Turkistonni moliyaviy "norentabellik"da aybladi. Viloyat ma'muriyati buni tan olmadi va aniq haqiqatni "moyillik" deb atadi. Turkiston o'lkasining moliyaviy muammolarini tushuntirishning "o'rta" usulini graf K. Palen topgan. Mintaqaning iqtisodiy ahvolini o'rganib chiqib, u shunday xulosaga keldi: "Aslida ona Rossiyada ham, Turkistonda ham bir-biriga qarshi da'volar qo'yish uchun asos yo'q: balans deyarli foyda va yo'qotishlarsiz, balki Markaziy Rossiya uchun ozgina foyda bilan ham kamayadi"[1. 270 – 271].

Davlat kengashining 1869-yil 3-iyundagi farmoni bilan Turkiston o'lkasida G'aznachilik palatasi, Aksiz departamenti tashkil etildi. G'aznachilik tarkibiga quyidagi mansabdor shaxslar kiritildi: menejer, ikkita bo'lim boshlig'i, kotib va uning yordamchilari, maxsus topshiriqlar bo'yicha ikkita mansabdor shaxs, uchta kotib, uchta buxgalter va sakkizta tuman aksiz nazoratchisi. Turkiston o'lkasining Chustdan tashqari har bir tumanida xazinalar bo'lgan. Bu muassasalarning barchasi bevosita Moliya vaziriga bo'ysunardi. 1867-yildagi Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi "Nizom"ga ko'ra Turkiston general-gubernatoriga o'lka moliyasini boshqarish uchun "maxsus huquq" – daromadlar va xarajatlar smetasini mustaqil shakllantirish, o'zgartirishlar kiritish huquqi berildi. Shuningdek, byudjet mablag'larini harbiy gubernatorlar va harbiy okrug bo'limlari o'rtasida taqsimlaydi. Bundan tashqari, har yili general-gubernatorga xarajatlar uchun 200 ming rubl ajratildi. Ammo general-gubernatorning huquqlari yildan-yilga cheklanib borardi.

1881 yilga kelib, general-gubernatorning daromadlar smetasida faqat o'lkah aholisidan olinadigan zemstvo solig'i, davlat muassasalaridan, Farg'ona viloyatidan olinadigan daromadlarga qolgan [2. 456].

Nihoyat 1875-yil Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini rubl zonasiga kiritdi eski qog'oz pullarni muomalada qoldirdi va shu orqali Turkiston viloyatining barcha moliya ishlari Rossiya imperiyasi Moliya vazirligiga bo'ysundi. Moliya vazirligi mahalliy savdogarlarning qo'shni xonliklar bilan savdosiga putur yetkazmaslik uchun Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga rus rubllarini kiritishga shoshilmadi, chunki Buxoro va Xivada mahalliy pul birligi saqlanib qolgan edi. Metropoliya ham mintaqaga katta miqdordagi rus valyutasini olib kirmaslikka harakat qildi. Shu munosabat bilan moliyachilardan biri "o'zgarmagan va doimiy mahalliy pul birligining saqlanishi bilan g'aznaga mahalliy kumushning kirib kelishi Rossiyaga 1 million rubl yuborish imkonini berdi", deb yozgan edi.

Turkistonda savdo va sanoatni rivojlantirish bu yerga katta sarmoya sarflashni talab qilar, ayni paytda, rus savdo-sanoat burjuaziyasining o'zi ham banklardan beriladigan qarzlarga muxtoj edi. Shuning uchun ham u mustamlakalarda o'z iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish, ayniqsa, xom ashyo eksportini ko'paytirish maqsadida o'lkada bank tashkilotlarini vujudga keltirishga kirishdi. Shu munosabat bilan 1874-yili 23-dekabrda podsho Aleksandr II Toshkentda davlat banki bo'limini ochishga ruxsat berdi. Bo'lim 1875-yili 10-mayda ish boshladi.

1893-yili Toshkentda Volga-Kama bankining bo'limi, Qo'qonda Moskva xalqaro bankining bo'limi ochildi. Volga-Kama bankining tijorat bo'limi o'lkada o'z faoliyatini tobora kengaytirib, Farg'ona viloyatida manufaktura paxta savdosi bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib oldi. U o'lkaga don mahsulotini keltirilishi bilan bog'lik xarajatlarni mablag bilan ta'minlab mahalliy "non banki"ga aylandi. 1909-yilda Farg'ona viloyatida 10 ta bank faoliyat yuritib, ular aholiga 16 million rubldan ortiq kreditlar bergan [3.205].

Farg'ona viloyatida Rossiya mustamlakachilari o'z manfaatlaridan kelib chiqib, siyosat olib borib, o'lkani xom ashyo bazasi (paxta, pilla, yer osti boyliklari)ga

aylantiradi. Yangi soliq va majburiyatlar joriy etildi. Ijtimoiy hayot tarziga zo‘ravoronlik bilan dawl qilindi.

Ayni paytda, mustabid davlat ulardan katta miqdorda daromad solig‘i, boj to‘lovlarini undirib, o‘z xazinasini boyitardi. Oddiy xalq esa ular qo‘lida eng qora ishlarni bajarar, biroq peshona teri, og‘ir mehnati bilan yaratilgan noz-ne‘matlar, moddiy boyliklar huzurini bahranad bo‘la olmay, og‘ir turmush kechirar, arzimagan ish haqqi olib, soliqlar, majburiyatlar va to‘lovlardan qarzga botib borardi.

Chor Rossiyaning Turkistondan olgan daromadlari yil sayin quyidagicha o‘shib bordi:

1-jadval [4.156].

Yillar	Daromad miqdori	Yillar	Daromad miqdori
1868-yil	1 484 677 rubl	1874-yil	2 727 430 rubl
1869-yil	2 187 396 rubl	1875-yil	2 736 354 rubl
1870-yil	1 864 312 rubl	1876-yil	3 733 696 rubl
1871-yil	1 822 102 rubl	1877-yil	3 495 481 rubl
1872-yil	1 879 966 rubl	1878-yil	3 822 297 rubl
1873-yil	2 616 410 rubl	1879-yil	4 053 270 rubl

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, mustabid davlatning Turkistondan olgan daromadi 1868-1879-yillarda deyarli 3 barobar ortgan va 12 yil davomida jami daromad 32 mln. 423 ming 391 rublni tashkil etgan [5.154]. Ammo general-gubernator fon Kaufman keltirgan bu daromadlar jadvaliga Samarqand, Farg‘ona viloyatlaridan olingan daromadlar to‘la kiritilmagan [6.361 – 371].

Tadqiqotchi A.Stetkevichning hisob kitobiga ko‘ra Rossiyaning Turkistondan 1869-1896-yillarda o‘lkadan bevosita olgan daromadi 158 mln. rubl bo‘lgan [7.15 - 20].

Ma‘lum bo‘lishicha Samarqand, Farg‘ona to‘liq bosib olingach, imperiyaning daromadlari keskin ortgan. Qayd etilgan raqamlar bevosita davlat xazinasiga tushgan daromadlar hisobi xolos. Vaholanki O‘rta Osiyoni bosib olish jarayonida imperiya qo‘shinlari o‘ljaga olgan va talagan boyliklar hisobi ulardan bir necha barobar ortiq bo‘lgan va bu jadvallarda qayd etilmagan.

Margʻilon bekligiga 125000 tilla 500 ming rubl tovon solingan. Qancha yuz ming qoramol, qoʻy, tuya, toʻplar, qurollar, oʻlja olingan. Bu oʻljalar va pullar hisobi yuqoridagi hisob kitoblarga kiritilmagan. Davlat xazinasining daromadi asosan xalqdan olingan. Toʻlovlar, boj, soliqlar hisobidan boʻlganini quyidagi maʼlumotlar tasdiqlaydi: [8.5].

6-javal [4.132].

№	Soliq nomi	Daromad miqdori
1.	Zakot	1 894 682 rubl
2.	Oʻtov soligʻi	8 278 845 rubl
3.	Yer soligʻi	2 651 044 rubl
4.	Jon soligʻi	53 417 rubl
5.	Savdo soligʻi	3 406 310 rubl

Chor hukumatining Turkiston aholisidan olgan soliqlari 1913-yilda 23 mln rublni tashkil etgan boʻlsa, 1916 yilda 33,3 mln rublga yetgan.

Turkistondagi yer soligʻi 1914-yilda 6 859 021 rubl boʻlgan boʻlsa, 1916- yilda 14 311 771 rublni yaʼni ikki barobarni tashkil qildi. 1915 yilda maxsus harbiy soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qilgan [4.8].

“Urusiya hukumati ekin ekilmaydigan yerlarga ham tanob torttirib, soliq olib turgan. Bozorlarda narxlar “arzon” boʻlganligi sabab, podsho haklari (soliqlari) ni oʻz vaqtida pul jamlab berolmasdan aholi koʻp qiynalgan edi” [11.216] deb oʻsha holat ‘Tarixi Aziziy’da batafsil yozilgan.

1883 yilgi arxiv maʼlumotlariga koʻra Chust uyezdi va Asht volostida 19 tanobga (1 tanobi sharʼiy - 60x60 gaz-3600 kv qadam boʻlgan) qovun ekilib, u yerdan 19 soʻm, Babodarxonda 5 tanob yerga ekilgan bedadan 5 soʻm 37 tiyin solik olingan [12.40].

Uyezd mahkamalarida xokim va uning yordamchilaridan tashqari polismeysterlar va shuningdek, soliq yigʻib olish ishlarini yoʻlga qoʻyish uchun harbiy qoʻshinlaridan tayinlangan pristavlar faoliyat olib borgan

1883-yil Chust uyezdining Asht volostida 1 pud bugʻdoy 60 kop. turgan. 151 puddan 10 rub. yoki beshdan bir qismidagi xiroj toʻlangan. Suli 1 pudi 40 kop . 111

pud ning beshdan bir qismi 22 pud .ga 9 rub., 1 pud jo‘xori -40 kop., bo‘lib 7 pud beshdan bir qismi uchun 1 pud 60 kop., xiroj to‘langanligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ruslar o‘lkaga kirib kelgan davrida ham ushbu soliqlar o‘z kuchini saqlab kolgan edi [13.5 – 10].

not only the Karakalpaks but also many other peoples, as an interactive teaching method. First, it is necessary to understand the content and essence of this game.

During the game of Tug of War, a referee is appointed. The two teams face each other, standing in opposition. A transverse line is drawn in the center of the playing field, and a red ribbon is tied at the middle of the rope. During the competition, the team that manages to pull the other team past this central line wins, and the game is stopped once the winner is determined. [4]

This Tug of War game can be transformed into a modern interactive teaching method through the following steps: first, the diagram shown in Figure 1 is printed on A3-size paper and pinned to the board. Then, the center of the board is marked, and the central point of the rope is identified accordingly.



Figure 1. The image was taken from the website afisha.uz. [6]

Next, we begin by explaining the rules of the game to the students. First, we divide them into two groups and explain that the two teams shown in the image represent the student groups in the classroom. Various modern methods can also be used to divide the students into groups.

During the explanation phase, we analyze the game diagram. Then, we mark the center point of the board and draw five unit lines to both the left and the right of

this central mark. During the game, each time a group answers a question correctly, the rope on the diagram is shifted one unit in their direction.

If the goal is to make the game methodology more complex, the rope can be shifted two or more units for more difficult questions. After all questions have been answered, the overall results are evaluated. The group toward which the center point of the rope has shifted the most is declared the winner.

CONCLUSION. This new method demonstrates that by giving traditional games a renewed meaning, it is possible to significantly increase students' interest in the lesson. This approach helps to foster independent thinking, respect for national values, and a sense of patriotism among students.

Based on the above results, it can be concluded that future research should focus on introducing new approaches to traditional games and synchronizing them with the educational process. We believe that this methodology could serve as a useful concept and practical model for future pedagogical research.

REFERENCES:

1. Jaksimuratov A.B. Geografiya fanining maktab o'quvchilari hayotida tutgan o'rni //International journal of scientific researchers (IJSR) – 2025. – T. 10. – №. 1. – B. 558-560.
2. Ostanaqulov X.M., Jaksimuratov A.B. Pedagoglar uchun IT ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligi va usullari //Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar – 2025. – №. 1. – B. 576-589.
3. Ostanaqulov X.M., Jaksimuratov A.B. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi tajribalarini o'rganish va qo'llash //Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar – 2025. – №. 1. – B. 473-486.
4. Qurbonova M., Qosimova M. Milliy va harakatli o'yinlar //JTI umumiy kurs talabalariga mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanma – 2009. – B. 67.
5. <https://kun.uz/news/2022/03/20/otma-tayoq-girboydi-dim-dim-yoqolib-borayotgan-xalq-oyinlaridan-qaysilarini-bilasiz>
6. <https://www.afisha.uz/uz/gorod/2025/04/08/uzbek-games>

MAKTABGACHA TA'LIMDA MARKAZLAR FAOLYATIDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR

Madatova Dilnura Zohidjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalish

Annotatsiya: Men ushbu maqolada MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maqsad: bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish.

Annotation: In this article, I consider the state requirements for the establishment of development centers in MTT and the implementation of the "First Step" state curriculum. Work in the centers is organized in such a way as to allow for the most effective development of each child, taking into account his individual characteristics, taking into account his individual abilities, interests, activity level. Purpose: to create conditions for the child's comprehensive development, upbringing, education and effective preparation for school.

Аннотация: В данной статье рассматриваются государственные требования к созданию центров развития в МТТ и реализации государственной учебной программы «Первый шаг». Работа в центрах организована таким образом, чтобы обеспечить максимально эффективное развитие каждого ребенка с учетом его индивидуальных особенностей, с учетом его индивидуальных способностей, интересов, уровня активности. Цель: создать условия для

всестороннего развития, воспитания, обучения и эффективной подготовки ребенка к школе.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagog, innovatsiya, faoliyat, takomillashtirish, texnologiya, malaka, jarayon, zamonaviy, rivojlanish, usullar.

Keywords: preschool education, pedagogue, innovation, activity, improvement, technology, skills, process, modern, development, methods

Ключевые слова: дошкольное образование, педагог, инновация, деятельность, совершенствование, технология, навыки, процесс, современный, развитие, методы

Ilk qadam ” dasturiga binoan maktabgacha ta'lim muassasasining turli yosh guruhlaridagi “Til va nutq”, “Ilm-fan va tabiat”, “Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika”, “San’at” “Syujet-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” faollik markazlari bolalarni dialogik va monologik nutqini rivojlantirishga, jamoa bo‘lib birgalikda hamda mustaqil ishlashga, raqamlar, shakl va vaqtni, elementar matematik hisoblashlarni bilishga, san’at va madaniyatga qiziqish, ijodiy yondoshish kabilarga qaratilgan. Bu boradagi kuzatishlar va ularning tahlili, katta yutuqlar bilan bir qatorda mavjud qiyinchiliklarni aniqlashga va asosli ba’zi takliflar kiritishga bizga imkon berdi. San’at markazi: tasviriy faoliyat zarur chn jihozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari. Markazlardagi bolalar faoliyati: o‘yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, samarali, musiqiy va badiiy. Pedagogning faoliyati: – bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o‘rgatish; – mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘rganish va rag‘batlantirish, shu bilan birga subyekt bo‘lish; – bolalar bilan birga uyushgan tadbirlar tashkil etish; – qiyinchiliklar yuzaga

kelganda, bolaga begʻaraz va oʻz vaqtida ogʻzaki va amaliy yordam koʻrsatish; – bolaning shaxsiy qiziqishini ragʻbatlantirish; – rivojlanish markazlarida oʻquv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va oʻyin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot oʻqish ensiklopedik adabiyotlarni oʻqish, koʻrib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish. Bolaning rivojlanishi faqat oʻquv faoliyatida emas, balki oʻyin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning oʻyin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga eʼtibor qaratadi. Agar kerak boʻlsa, tarbiyachi didaktik materiallarni toʻldiradi yoki oʻzgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini taʼminlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning oʻz maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday boʻlsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida toʻgʻri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga oʻziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan oʻzaro munosabatlarni oʻrganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuygʻularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan taʼlim asosida yotadi. Oʻyin faoliyati:- oʻzini zimmasiga olgan roʻlga muvofiq tutish shakllanadi Interfaol oʻyinlar jarayonida bola mustaqil fikrini toʻgʻri bayon etishga, boshqalarni tinglashga oʻrganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol oʻyinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamir boʻlgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol oʻyinlarni samarali oʻtkazish uchun quyidagi qoidalarga eʼtibor berish lozim:

1. Mashgʻulot oldidan bolalar oʻyin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.

3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.

5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.

6. Bolalarga rohami to'g'ri taqsimlash.

7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish

8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish. Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tahimdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tarbiya jarayonlariga pedagogik texnologiya va interfaol usullarni maqsadli qo'llash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta'lim shakillarini o'ptimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o'stirish va ta'lim samarodirligiga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. F.R.Kodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari;

2. S.K. Shodiyeva- "O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish" o'quv qo'llanma. T.: "O'qituvchi" 1993 yil;

3. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2009 yil.

4. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma. TDPU 2016 yil.

5. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” darslik TDPU 2017 yil.



DUO VA TILAKLARNING RUHIY VA MA'NAVIY TA'SIRI

Mutalibjonov Asadillo.

Andijon davlatlat universitetining

Folklorshunoslik va dialektologiya yo'nalishi

1-bosqich magistranti

@asadillomutalibjonov40

Annotatsiya: Mazkur tezis ishida duo va tilaklarning inson hayotidagi ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy o'рни tahlil qilinadi. Asosan o'zbek xalq og'zaki ijodida uchraydigan ezgu tilaklar, duolar misolida ularning ijtimoiy muomala vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Duo va tilaklar faqatgina diniy tushunchalar emas, balki odamlar orasida mehr-oqibat, samimiyat, yaxshilik va ijobiy munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida ham qaralgan. Ishda tilaklarning ruhiy salomatlik, ijtimoiy barqarorlik, insonlararo iliq munosabatlar shakllanishidagi ta'siri, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida qanday badiiy ifoda topgani keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Duo, tilak, xalq, ruh, niyat, "Sog'-omon borib keling", inson, shodlik, baxt.

Annotation: This thesis analyzes the spiritual, moral and social role of prayers and wishes in human life. Their importance as a means of social communication is revealed on the example of good wishes and prayers, which are mainly found in Uzbek folk art. Prayers and wishes are not only religious concepts, but also a means of strengthening kindness, sincerity, goodness and positive relationships between people. The work extensively covers the impact of wishes on mental health, social stability, and the formation of warm interpersonal relationships, as well as how they find artistic expression in examples of folk art.

Duo va tilaklar – insonlar o‘rtasidagi eng ezgu va xushmuomala aloqalardan biridir. Ular nafaqat ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, balki hayotdagi har bir insonning sog‘lik, baxt, muvaffaqiyat va xotirjamlikka erishishida muhim rol o‘ynaydi. Xalq orasida duo va tilaklar og‘zaki madaniyatning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. Ularning ta’siri nafaqat ruhiy, balki jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmaga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1. Duo va tilaklarning ma’naviy o‘rni

Duo – insonning ichki dunyosidagi ijobiy energiya, bu energiya yordamida odamlar o‘z orzulariga erishish, salomatligini tiklash, hayotdagi barcha qiyinchiliklarni yengish uchun qo‘llab-quvvatlanadi. Xalq orasida duo va tilaklar nafaqat diniy yoki ruhan tasavvur qilingan narsalardan iborat, balki ular ijtimoiy me’yor va qadriyatlarga asoslanadi.

2. Baxt va sog‘lik tilaklari

Baxt va sog‘lik, har bir insonning eng muhim orzularidir. Har bir duo yoki tilakda, bu ikki asosiy unsumni so‘rab, insonni qiyinchiliklardan saqlash va uning hayotini yaxshilashga qaratilgan tilaklar bor. Masalan, "Sog‘-omon bo‘ling" yoki "Baxtli bo‘ling" kabi tilaklar insonning jismoniy va ruhiy holatiga ta’sir qiladi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va hayotga ijobiy qarashni rivojlantiradi.

3. Duo va tilaklarning ijtimoiy rolini tahlil qilish

Duo va tilaklar odamlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Ular odamlarning bir-biriga bo‘lgan hurmatini oshiradi, yaxshi niyatlar, samimiy so‘zlar orqali bir-birini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Misol uchun, to‘yda "Bir yostiqqa qariyinglar" degan tilak, oila a‘zolarini birlashtirish, ularning bir-biriga sadoqatini mustahkamlashga yordam beradi.

4. Duo va tilaklarning ruhiy ta’siri

Ruhiy jihatdan duo va tilaklar insonning stress darajasini pasaytiradi, kayfiyatini yaxshilaydi, ichki huzurini topishiga yordam beradi. Ular umid, tinchlik va xotirjamlikni yaratadi, bu esa ruhiy salomatlikning mustahkamlanishiga yordam beradi. Masalan, "Har kunning shodlik bilan boshlansin" kabi tilaklar insonni ijobiy kayfiyatda tutish va barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ruhlantiradi.

5. Duo va tilaklarning ijobiy energiya yaratishdagi roli

Duo va tilaklar atrofdagi muhitni ham ijobiy energiya bilan to‘ldiradi. Har bir yaxshi so‘z, niyat va duo atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. "Sog‘-omon borib

keling" yoki "Yo'lingiz ochiq bo'lsin" kabi so'zlar insonni xavfsizlik va barqarorlik hisi bilan ta'minlaydi.

Duo va tilaklar insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatligi uchun ham juda muhimdir. Ular har bir kishi hayotida yo'l-yo'riq ko'rsatib, unga ma'naviy va emosional qo'llab-quvvatlashni taqdim etadi. Xalq orasidagi duo va tilaklar faqat so'zlar emas, balki insonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati, sevgisi va yaxshi niyatlarining ifodasi sifatida, jamiyatda barqarorlik va osoyishtalikni ta'minlaydi. Shunday qilib, duo va tilaklarning ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy ta'siri juda katta bo'lib, ular hayotimizni yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev, A. (2015). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: Akademya nashr.
2. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Rasulov, D. (2019). Duo va ijobat: Ruhiy tarbiya asoslari. Samarqand: Barkamol Avlod.
4. Abdurahmonova, M. (2020). Tilaklar madaniyati va ijtimoiy nutqda qo'llanilishi. Toshkent: Filologiya nashriyoti.
5. Hojiahmadov, Z. (2017). Ma'naviyat asoslari. Buxoro: Ilm Ziya.
6. Qur'on va Hadislar asosida duo va istig'forlar. (2014). Toshkent: Hilol Nashr.
7. Komilov, N. (2009). Tasavvuf va ma'naviy tarbiya. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. Yusupova, N. (2021). "O'zbek xalq og'zaki ijodida duo va tilaklarning badiiy funksiyasi." Til va adabiyot ta'limi jurnali, №2.

EKOLOGIK MADANIYAT-SALOMATLIK GAROVI

Ergashev Sardorbek Dadxon O'g'li

Qoqon universiteti Andijon filiali.

Davolash ishi 24-25- guruh talabasi

sardorergashev274@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada tabiat bilan hayvonot o'rtasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida insonlar salomatligiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar, zararlangan mintaqalardagi yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ularni bartaraf etishda ekologik madaniyatning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy barkamollik, ekologik ta'sir, ekologik madaniyat, demografik joylashuv.

АННОТАЦИЯ : В статье описаны факторы, влияющие на здоровье человека из-за дисбаланса между природой и животными, сложные социально-экономические проблемы в пострадавших регионах и роль экологической культуры в их преодолении.

Ключевые слова: духовное совершенствование, экологическое воздействие, экологическая культура, демографическая локация.

ABSTRACT :

The article discusses the factors that affect human health as a result of the imbalance between nature and animals, the complex socio-economic problems that arise in the affected areas, and the role of environmental culture in overcoming them.

Keywords: Spiritual perfection, ecological impact, ecological culture, demographic location.

KIRISH: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi bunyodkorlik ishlari birinchi galda inson qadrini ulug'lash, har tomonlama kamol

topgan, ma'nan boy, axloqan yetuk, jismonan baquvvat, intellektual rivojlangan komil insonni shakllantirishdek oliy maqsadlarga qaratilgan. Ushbu ulkan maqsadlarga erishish xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy barkamolligi bilan chambarchas bog'likdir. Ma'naviy va ma'rifiy barkamollikni inson salomatligisiz tasavvur qilish juda qiyin. Sog'lom turmush tarzi – bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lishi asosida hayotiy faoliyatini yo'lga qo'yishi hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlash shakli bo'lib, u kun tartibiga rioya qilish, faol jismoniy harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, gigiena qoidalariga rioya qilish, ekologik muloqot va madaniyatga erishish, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tiya bilish holatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Inson salomatligi to'g'risida gap ketganda uning tabiatga nisbatan munosabati, ya'ni tabiat ne'matlaridan hisoblangan yer, suv, quyosh va havoga nisbatan madaniyati va ushbu munosabatlarning sog'likka ta'siri haqida so'zlamog maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda o'ta dolzarb va targ'ibot kilinishi juda zarur bo'lgan muammolardan biri ekologik muammolar bo'lib, dunyo xalqlari hayotiga xavf tug'dirmoqda. Bizni o'rab turgan va biz yashab turgan tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida insonlar salomatligiga katta putur yetmoqda, zararlangan mintaqada murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga kelmoqda. Bularga Orol dengizi fojiasi, atmosferaning ozon qatlamida hosil bo'lgan tirqishlar, global ob-havo kataklizmalari, radiatsiya, sunami, suv toshqinlari, texnogen falokatlar va boshqa ko'plab ekologik nomutanosibliklar kiradi. Bu muammolarning oldini olishda barcha davlat arboblari, yirik mutaxassis olimlar, keng jamoatchilik vakillari va xalqlar birlashgan holda kurash olib borishlari kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik madaniyatning shakllanishi bevosita sog'lom turmush tarziga, yosh avlod tarbiyasiga, oilaviy muhitga va ta'lim tizimining ekologik yo'naltirilganligiga bog'liq. I.A. Karimovning asarida ifodalangan fikrlar asosida ekologik tarbiyaning milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi isbotlandi.

Ekologik madaniyatning oilada, maktabda, va ommaviy axborot vositalari orqali singdirilishi yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik ongning kuchayishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, ma'naviy barkamollikni ham yuksaltiradi.

Tabiatni biz, odatda, onaga tenglashtiramiz, unga qiyoslab ona tabiatimiz deb ataymiz. Ammo, unga bo'lgan muomala va munosabatimiz hamma vaqtlarda ham xuddi shu onaga bo'lgan munosabat singari bir xilmi? Hamma gap ham ana shunda. Uzoqqa borib o'tirmaylik, tabiat ne'matlaridan biri bo'lgan suvga bo'lgan shafqatsizlarcha munosabat natijasida nafaqat o'zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari Orol dengizining qurishidek insoniyat tarixidagi eng falokatli, global ekologik muammoni o'z boshidan kechirmoqda. Balandparvoz shiorlar-u besh yillik rejalarni bajarish, tabiatni inson hukmiga bo'ysundirishga qaratilgan behuda urinishlar, yirik suv omborlari qurilishi, kanal va anhorlar qazib sho'rxok cho'l zona yerlarida paxta plantatsiyalarining tashkil etilishi Orolbo'yi mintaqasida ekologik nomutanosiblikni keltirib chiqardi. Buning mislsiz darajadagi salbiy oqibatlarini sanab o'tsak cheki yo'q: qachonlardir moviy to'lqinlari mavjlanib turgan dengizo'rnini sho'rxok, qup-quruq qumliklar egallagani, ilgari turli kema va qayiqlar bilan gavjum qirg'oq bo'yining huvillab qolgani, metallomga aylangan, zang bosib yotgan kemalar, baliqchilik va boshqa soha korxonalarining inqirozi, tuzli qum bo'ronlari, go'zal tabiat manzarasining qaqrab yotgan cho'l-biyobon bilan almashinishi, qancha insonlarning o'z yashab turgan vatanidan, kasbidan mahrum bo'lishi. Tabiatga yomon munosabatda bo'lish – bu o'z sog'lig'imizga yomon munosabatda bo'lishdir. Negaki, inson ham ana shu ona tabiatning bir bo'lagi. Tabiatni sog'lomlashtirmasdan turib, odamlar sog'lig'ini yaxshilash to'g'risida gap

ham bo'lishi mumkin emas. Tabiatning sog'lig'i aynan biz yuqorida qayd etgan suv, tuproq, havo, quyosh nurining sofliğida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanadi, aynan shu davrda uning qalbida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Farzandlarimiz ongu shuuriga tabiatga mehr-muhabbatni, ekologik madaniyatning ilk saboqlarini singdirishni aynan mana shu davrdan boshlash kerak. Chunki bu yoshda bolaning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqeahodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning o'zini o'rab turgan tabiatga, muhitga nisbatan munosabati, ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati kundan-kunga takomillashib boradi. Bu ekologik madaniyat shakllanayotganligidan dalolat beradi. Atrof-muhit, urf-odatlarida tan olingan me'yorlar va tartib-qoidalar oilada bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Bola, asosan, oilada o'sib-ulg'ayadi, rivojlanadi, o'z his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi. Ota-onalar bolaning kayfiyati, ahvoli va xulqi u yashayotgan sharoitga bog'liq bo'lishini yaxshi bilishi kerak. Shu bilan birga, farzandlariga sog'lom bo'lish uchun gigiena qoidalariga rioya qilish shartligini oz-ozdan uqtirib borishlari lozim. Bu esa oilada sog'lom turmush tarzining shakllanishiga olib keladi. Xalqimizning «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan dono maqoli mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi. Bolada ijobiy xislatlarning shakllanishida oila bilan birga maktab, mahalla-kuy, tengdoshlari va umuman, atrof-muhitning ta'siri katta. Bugungi kunda har bir oila oldidagi vazifalardan biri bu bolalar ongida yoshligidanoq ekologik ong va ekomadaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish, noyob tabiatni asl holicha kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini vujudga keltirish orqali atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirning oldini olishdan iborat.

Buning uchun barchamiz, xususan, yoshlarimizning ongida Ona-er, Ona-tabiat, Ona-Vatanga, uning boyliklariga bo'lgan yuksak e'tibor, mehr-muhabbat, chuqur ehtiromni, ya'ni vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirish lozim. Bugun

mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zahirida oilalar mustahkamligi, farzandlar barkamolligi, ham ma'nan, ham jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ularning baxtu saodati va farovon kelajagini ko'rish orzusi mujassamligini alohida ta'kidlash joiz. Ekologik madaniyatni shakllantirishda bolalar muassasalari, maktab va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va ayniqsa tibbiyot tashkilotlarining o'rni beqiyos bo'lib, ushbu ma'rifat o'choqlarida ekologiya soatlarining tashkil etilishi bu borada olib borilayotgan tadbirlar samaradorligini oshiradi. Yon atrofni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari, hasharlarni o'tkazib borish, gul, daraxt ko'chatlari, nihollar ekish tabiatni yashartiradi, uning yanada go'zal, beg'ubor, sof bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishda quyidagi usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega: yoshlar ishtirokida ekologiyaga oid mavzularda seminar treninglar tashkil etish; ekobog'lar barpo etish, ekologik hasharlar va aksiyalar o'tkazishga yoshlarni keng jalb qilish; ekologik mavzularda tanlovlar tashkil etish; ekologik adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish; talabalarning ilmiy konferensiyalarini tashkil etish va ijtimoiy reklamalarni ko'paytirish; ekomarafon va boshqa turli sport o'yinlarini o'tkazish; bog'cha va maktablarda ekologik to'garaklar tashkil etish; ekologik sayohatlar uyushtirish; Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodning ekologik madaniyati, dunyoqarashi, bilim va mas'uliyatini oshirib borish bilan bog'liq ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etish, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va maxsus dasturlarni muntazam ravishda efiinga uzatish.

Orol dengizi fojisi, global isish, suv tanqisligi kabi ekologik muammolar yurtimizda ekologik tarbiyaning ahamiyatini oshiradi. I.A. Karimov asaridagi "Insonni komil etuvchi vosita – bu, eng avvalo, uning ma'naviy dunyosidir" degan g'oya, ekologik madaniyatning ma'naviyat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Yosh avlodning qalbiga tabiatga mehr-muhabbatni singdirish, ularni ekologik xatti-harakatlarga yo'naltirish – bu nafaqat sog'liq, balki millat kelajagi uchun ham zaruriy shart hisoblanadi.

XULOSA:

Ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksizligini ta'minlash yosh avlodning ekologik madaniyatli bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- yoshlarning o'zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadoniga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi;

- yoshlarning o'zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadoniga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni chuqurlashtirgan holda shuni aytish joizki, I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida inson hayotining asosi bu – ma'naviyat va madaniyat ekanligi takror va takror ta'kidlab o'tilgan. Zero, ekologik madaniyat – bu faqat tabiatga nisbatan hurmat emas, balki o'z salomatligiga, jamiyatga va kelajak avlodga nisbatan mas'uliyat hissi hamdir. Karimov ta'kidlaganidek, "Yurt kelajagi, xalq taqdiri, jamiyatning ertangi kuni bugungi yosh avlodga bog'liq". Demak, ularning ongiga ekologik ong va sog'lom turmush tarzini singdirish bu – kelajakni asrash demakdir.

Asarda keltirilganidek, "Agar yoshlarimizning qalbi va tafakkurida milliy iftixor tuyg'usi bo'lmasa, ularni har qanday tahlikalardan, illatlardan asrash qiyin bo'ladi". Shunday ekan, ekologik madaniyat – bu ham milliy qadriyat, ham iftixor, ham ongli tanlovdir. Zero, biz o'z milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylagan holda, tabiatga mehr-muhabbatni ham shunga mutanosib ravishda singdirishimiz lozim.

Ekologik tarbiyaning samarasi – faqatgina atrof-muhitni asrash emas, balki inson qalbida go'zallikni, poklikni, halollikni uyg'otishdan iboratdir. I.A. Karimovning ushbu asarida aytilganidek, "Insonni komil etuvchi vosita – bu, eng avvalo, uning ma'naviy dunyosidir". Ana shu ma'naviy dunyoni shakllantirishda ekologik ong va madaniyat asosiy ustunlardan biri bo'lishi shart.

Demak, ekologik madaniyat – bu nafaqat jamiyatni, balki salomatlikni, ruhiyatni, avlodlar orasidagi uyg'unlikni, tinchlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni ta'minlaydigan kuchdir. U – insoniyatning va davlatning mustahkamligi garovidir.

Maqolada keltirilganidek, yoshlarimizga ekologik madaniyatni singdirish ularning hayotdagi yo‘lini belgilab beruvchi mezonlardan biri sifatida ko‘riladi.

Xulosa o‘rnida, I.A. Karimovning asaridagi quyidagi fikrni keltirish maqsadga muvofiq: “Qachonki inson o‘zini tabiatning bir bo‘lagi, uni asrash, go‘zallashtirish va unga zarar yetkazmaslik kerakligini anglab yetmasa, biz kutilgan natijaga erisha olmaymiz”. Ana shu fikr asosida, biz har bir fuqaroning ongida ekologik madaniyatni shakllantirishni hayotiy zarurat sifatida qabul qilishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. G‘ofurov B. «Inson va tabiat uyg‘unligi». – T.: O‘zbekiston, 2010.
3. Hasanov M. «Ekologik tarbiya asoslari». – T.: Fan va texnologiya, 2015.
4. «Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» darsligi. – T.: TDPU nashriyoti, 2019.
5. Rasulov Sh. «Yashil kelajak sari». – T.: Akademnashr, 2021.
6. UNESCO: Environmental Education for Sustainable Development, 2012.
7. World Health Organization. “Environment and Health” – Geneva, 2020.
8. Nazarov A. «Ekologik madaniyat va insoniyat». – T.: Ma’naviyat, 2017.
9. ЮНЕСКО. Образование в интересах устойчивого развития. – М., 2011.
10. Мирсаидов М.М. Экологическая культура и ее формирование. – Т.: Узбекистан, 2005.
11. Дьяков А.М. Экология человека. – М.: Высшая школа, 2002.
12. Quronov D. “Ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari”. – T.: Fan, 2018.
13. O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: Adolat, 2020.

- 14.Shodmonov N. «Tibbiyotda ekologik muammolar». – T.: Istiqlol, 2016.
- 15.Federal Environmental Agency. “Strategies for Environmental Awareness Raising”. – Berlin, 2014.
- 16.ЮНЕСКО. Образование в интересах устойчивого развития. – М., 2011.
- 17.Мирсаидов М.М. Экологическая культура и ее формирование. – Т.: Узбекистан, 2005.
- 18.Дьяков А.М. Экология человека. – М.: Высшая школа, 2002.
- 19.Quronov D. “Ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari”. – T.: Fan, 2018.
- 20.O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: Adolat, 2020.
- 21.Shodmonov N. «Tibbiyotda ekologik muammolar». – T.: Istiqlol, 2016.
- 22.Federal Environmental Agency. “Strategies for Environmental Awareness Raising”. – Berlin, 2014.

SANOAT CHIQINDILARI VA ULARNI QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA TUTGAN O‘RNI

M.A.Murodilova

Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti

e-mail: yoldashevamuhayyo99@gmail.com

Tel: +998916627993

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lgan tabiiy resurslarni tejash va ikkilamchi resurslardan foydalanish va ekologiyaga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf qilish uchun amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vazifalar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Sanoat chiqindilari, qurilish materiallari, ekologiya, korxona, tsement, metallar, texnologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи, позволяющие экономить на природных ресурсах и устранять факторы, влияющие на вторичные ресурсы, а также тема, которая является актуальной проблемой современности.

Ключевые слова: промышленные отходы, строительные материалы, экология, предприятие, цемент, металлы, технология.

Annotation: This article discusses the tasks that are possible to save on natural resources and eliminate factors affecting secondary resources and theme, which is a pressing issue of our day.

Keywords: Industrial waste, building materials, ecology, enterprise, cement, metals, technology.

Turli sanoat korxonalarining ikkilamchi chiqindi mahsulotlari iste'molchi tarmog'ining sanoat chiqindilari hisoblanadi ulardan ko'proq qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayonlarida xom ashyo sifatida foydalaniladi. Jumladan, qurilishdagi materiallar uchun ketadigan sarf-xarajat smetaning 55% dan ortig'ini tashkil etishini hisobga olinsa, sanoatdagi ikkilamchi mahsulotlardan foydalanish

qurilish materiallarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ekanligini e'tirof etish mumkin. Inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashgan, fan-texnika jadal rivojlangan davrda tabiatni muhofaza qilish eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab fan-texnikaning jadal rivojlanishi insoniyatning tabiatga ta'sir darajasining keskin ortishiga olib keldi. Hozirgi yer kurrasida kishilarning xo'jalik faoliyati bilan bogliq holda atmosferaga har yili 500 mln.t atrofida oltingugurt gazi, sulfat oksidi, azot oksidi, karbanat angidrid va pestitsidlar chiqarilmoqda. Bulardan tashqari, sement, ko'mir, metallurgiya va boshqa sanoat korxonalaridan ko'plab atmosferaga kul, rux, qo'rgoshin, mis, chang va boshqa moddalar chiqarilmoqda. Shuningdek, katta maydonlardagi o'rmonlarni kesib yerlarni haydash tufayli tuproq eroziyasi va deflyatsiyasi kuchaydi, o'rmon-o'tloqlarda yog'in ko'paydi, qishloq xo'jaligida ko'plab pestitsidlar ishlatish oqibatida atmosfera tarkibida chang, tutun qurumlar, zaharli ximikatlar miqdorining ko'payishiga olib keldi. Buyuk rus olimi D.I.Mendeleyevning obrazli ta'biri bilan aytganda, «Kimyoda chiqindilar yo'q, balki foydalanilmagan xom-ashyo bor, xolos!». Hozirgi kunda ko'pgina metallurgiya sanoati ishlab chiqarish korxonalari chiqindisiz texnologiyalarni amalga joriy etib, ma'danlarni kokssiz va domna o'choq'larisiz eritishning yangi usullaridan foydalanib kelmoqdalar. Ma'danlar tarkibidagi metallar tabiiy gaz yoki vodorod yordamida eritib olinmoqda. Natijada domna o'choqlaridan ajralib chiqadigan kul, koks va boshqa chiqindilar hosil bo'lmaydi, atmosfera havosiga chiqarib tashlanadigan zaharli gaz, chang, qurum va boshqa chiqindilar o'z-o'zidan yo'qoladi. Metallarni bu usul yordamida eritib olish korxonadagi chiqindilardan to'la-to'kis foydalanish imkonini beradi. Rangli metallurgiya sanoati ishlab chiqarish korxonalarida nikel, volfram va boshqa rangli va nodir metallarni ishlab chiqarishda ham chiqindilar miqdori tobora kamayib bormoqda. Agar 80 yil ilgari rangli metallurgiya sanoati ishlab chiqarish korxonalarida xom-ashyolardan hammasi bo'lib 15 element ajratib olingan bo'lsa, hozirgi paytda 25 element (mis, rux, qo'rg'oshin, nikel, oltin, kumush, molibden, kobalt, kadmiy, selen, tellur, germaniy, reniy va ularning birikmalari oltingugurt, vismut, surma, bariy, temir va boshqa elementlar) ajratib olinmoqda.

Ikkilamchi materiallar resurslari – bu ishlab chiqarish chiqindilari va iste'molga yaroqsiz chiqindilarning majmuasi bo'lib, ularni mahsulot ishlab chiqarishda asosiy yoki yordamchi material sifatida qo'llash mumkin. Bundan tashqari, bu guruhga shartli ravishda qo'shimcha yoki aloqador mahsulotlarni ham qo'shish mumkin. Ular sanoat uchun materiallar resursining potentsial rezervlari hisoblanadi. Hozirgi paytda bunday resurslardan to'liq foydalanilmayapti. Ikkilamchi energetik resurslar – texnologik jarayonlar natijasida qurilmalarda paydo bo'ladigan chiqindilar, qo'shimcha va oraliq mahsulotlarning energetik potentsiali bo'lib, ulardan korxonaning o'zida yoki qo'shni korxonalarni energiya bilan ta'minlashda qisman yoki to'liq qo'llash mumkin. Oxirgi yillarda jahonda xom-ashyo o'rnida chiqindilardan foydalanish katta tezlik bilan o'sib bormoqda. Masalan, Yaponiyada 96 % dan ko'proq ishlab chiqarish chiqindilari xom-ashyo o'rnida qayta qo'llaniladi. Ikkilamchi xom-ashyolarga qayta ishlov berish tajribalari Olmoniya, Bolgariya va Polshada keng rivojlanib bormoqda. MDX da 85% domen toshqollari, 25 % cho'yan va 50 % temir qotishmalari qayta ishlanadi. Shuningdek, qattiq chiqindilarning yillik to'planish hajmi juda tez ko'payib bormoqda. AQSH da qattiq chiqindilarning yillik chiqarib tashlanish miqdori 4.5 mlrd. tonnaga yetdi. Shu jumladan, sanoat chiqindilari — 1 mlrd. tonna, Yevropaning boshqa mamlakatlarida esa — 7.2 mlrd tonna, Yaponiyada — 1.3 mlrd tonna, Rossiya va MDH mamlakatlari bilan qo'shib hisoblaganda 1990-yilda 100 mln. tonna, 2000- yilda esa - 140—150 mln tonnadan oshib ketdi.[1]

Chiqindisiz ishlab chiqarishni yaratish uchun prinsipial yangi texnologiyalarni ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, katta iqtisodiy mablag'larni ajratishni taqozo etadi. Chiqindisiz texnologiyada nafaqat ishlab chiqarish chiqindilari, balki iste'molga yaroqsiz bo'lib qolgan chiqindilarni tiklash kerak bo'ladi, ya'ni xom-ashyo resurslari – ishlab chiqarish – iste'mol qilish – ikkilamchi xom-ashyo resurslari stiklini yaratishni taqozo etadi. Masalan, agar 1 tonna surtuvchi moylarning dastlabki xossalari tiklansa, bu 6 tonna neftni tejaydi. Bir tonna moyni qayta tiklashga sarflanadigan mablag moy va neft ishlab chiqarishga sarflanadigan mablagning yarmini tashkil etadi. Qo'llanish muddatini o'tab bo'lgan, eskirgan

avtomobil va traktor shinalarining 1mln tonnasidan qayta foydalanilganda 700 ming tonna rezinani, 130-150 ming tonna to'qimachilik tolalarini va 30-40 ming tonna po'latni tejash mumkin. Sanoat korxonalaridan chiqadigan chiqindilar va axlatlarning zararsizlantirishning ikkinchi usuli - ularni kuydirish hisoblanadi. Hozirgi paytda Fransiyada 35% va Yaponiyada 40% axlatlar kuydiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axlatlarni kuydirish usulining ikkita afzalligi mavjud: birinchidan, kuydirilganda axlatlarning hajmi 2-10 marotabagacha kichiklashadi; ikkinchidan, axlatlarni kuydirish paytida ajralib chiqqan issiqlikdan foydalanish mumkin. Ammo bu usulning kamchiligi shundan iboratki, kuydirishdan keyin paydo bo'lgan kukun tarkibida zaharli moddalar ham bo'ladi. Xususan sintetik materiallarni kuydirish paytida kuchli mutagenlar va kansterogenlar hisoblangan dioksinlar va kuchli zaharli moddalar ajralib chiqadi. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, 6-10 g dioksin insoning halokatiga uchratish qobiliyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] S. M. Turobjonov, M. M. Niyazova, T. T. Tursunov, X. L. Pulatov sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi.

[2] S. M. Turobjonov, M. M. Niyazova, T. T. Tursunov, X. L. Pulatov sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi

[3] Yo'lasheva Muhayyo Alisher qizi. Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rni. 277-279 b.

[4] Beton to'ldiruvchilar texnologiyasi. A. Xamidov. Toshkent-2020.

[5] "Yangi O'zbekiston: ilm qaldirg'ochlari - 2023" II-Respublika ko'rik tanlovi hamda talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasi A.A.Baxodirov O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi boshqaruv raisining ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha birinchi o'rinbosari т.ф.д., профессор.

[6] S.M.Turobjonov, M.M.Niyazova, T.T.Tursunov, X.L.Pulatov Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi O'zbekistonda faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT – 2011

[7] Shakhova, Lyubov & Luginina, Iya & Cherkasov, Roman. (2014). Intensification of Cement Grinding with Apply Grinding Aids with Modify Effect. Modern Applied Science. 8. 296-305. 10. 5539/mas. v8n6p296.

[8] Shevchenko A. F. , Saley A. A. , Sigunov A. A. , Peskova N. P. Puti intensifikatsii protsessa pomola sementa // Voprosy khimii i khimicheskoy tekhnologii. – 2008. - №5. – S. 129-137.

[9] Qurilish materiallariva buyumlari. N.A. Samig'ov Toshkent-2013.

[10] Bog'lovchi moddalar. O'quv uslubiy qo'llanma. Farg'ona 2021-2022

[12] Karimova M. et al. YOG 'OCH CHIQUINDILARI VA BOSHQA SANOAT CHIQUINDILARI ASOSIDAGI TO 'LDIRUVCHILAR //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 34-37.

[13] qizi Yo'ldasheva M. A. QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIDA SANOAT CHIQUINDIALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 409-412.

[14] qizi Yo'ldasheva M. A. IKKILAMCHI RESURSLAR VA ULARNING QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDAGI O 'RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 825-827.

[15] Muhayyo Y. IKKILAMCHI RESURSLARDISHAN QURILISH MATERIALLARINING XOM-ASHYOSI SIFATIDA FOYDALANISH //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 81-83.

[16] Qizi, Yo'ldasheva Muhayyo Alisher. "IMPROVING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL WASTE PROCESSING." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.12 (2022): 274-280.

[17] Yoldasheva M. et al. OBTAINING BUILDING MATERIALS BASED ON INDUSTRIAL WASTE //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 536-538.

[18] Muhayyo Y. Secondary Resources Use as Raw Materials of Construction Materials //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 240-241.

[19] Yo‘ldasheva M., Ohunova G. SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI OLISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A6. – C. 536-538.

[20] Muhayyo Y. SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH //SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH". – 2023. – T. 14.

[21] Tolibjon o‘g‘li M. K. et al. MONITORING OF AREA THROUGH TACHEOMETER AND DESIGNING IN AUTOCAD SOFTWARE //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 27. – №. 1. – C. 13-20.

[22] Muhayyo Y. SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH //SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH". – 2023. – T. 14. – №. 1.

[23] qizi Yo‘ldasheva M. A. IKKILAMCHI RESURSLAR VA ULARNING QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI O‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 825-827.

[24] Yo‘ldasheva M., Ohunova G. SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI OLISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A6. – C. 536-538.

[25] qizi Yo‘ldasheva M. A. QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARIDA SANOAT CHIQINDILARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 409-412.

[26] Yo‘ldasheva M., Ohunova G. (2022). *Science and Innovation*, 1(A6), 536-538.

- [27] Muhayyo Y. (2023). *SPAIN: Interdisciplinary Research*, 14.
- [28] Tolibjon o'g'li M. K. et al. (2023). *Ta'lim, Fan va Innovatsiya*, 27(1), 13-20.
- [29] Muhayyo Y. (2023). *SPAIN: Interdisciplinary Research*, 14(1).
- [30] Yo'ldasheva M.A. (2023). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 825-827.
- [31] Yo'ldasheva M., Ohunova G. (2022). *Science and Innovation*, 1(A6), 536-538.
- [32] Yo'ldasheva M.A. (2023). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 409-412.
- [33] Hall, G. (2011). *Exploring English Language Teaching: Language in Action*. Routledge.
- [34] Scrivener, J. (2005). *Learning Teaching: A Guidebook for English Language Teachers*. Macmillan.
- [35] Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language*. Heinle & Heinle.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISHNING AHAMIYATI

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat xizmatlari, raqamli ta’lim va biznes sohasidagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot beirladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o‘tishning ijobiy tomonlari, jumladan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va davlat xizmatlarini yaxshilash tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: Raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), elektron hukumat, raqamli transformatsiya, internet infratuzilmasi, elektron tijorat, moliyaviy texnologiyalar, kiberxavfsizlik, iqtisodiy modernizatsiya, raqamli infratuzilma.

So‘nggi o‘n yilliklarda butun dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning o‘rni tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tarmoqlarining kengayishi, raqamli vositalarning kundalik hayotga va biznes jarayonlariga kirib borishi butun iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida, balki davlat boshqaruvida, ta’limda, sog‘liqni saqlashda ham raqamli texnologiyalar asosiy o‘rin tutmoqda. Bu jarayonlarni birlashtirib, “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi shakllandi. U nafaqat texnologiyalar majmui, balki iqtisodiy faoliyatning yangi shakli, yangi iqtisodiy tizim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham bu global tendentsiyalarni chuqur anglab, o‘z iqtisodiy siyosatida raqamli iqtisodiyotga o‘tishni strategik maqsad sifatida

belgilagan. Raqamli iqtisodiyotga o'tish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki raqobatbardoshlikni oshirish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirish yo'lida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda AKT sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab dasturlar qabul qilinib, ularni amalga oshirish doimiy nazorat ostida olib borilmoqda.

Bu jarayon davlatning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xizmatlar sohasini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, shuningdek kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish borasidagi sa'y-harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali iqtisodiyotning samaradorligi oshadi, yangi texnologiyalar joriy etiladi, investitsiyalar jalb qilinadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot insonlarning hayot sifatini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli xizmatlar, onlayn tibbiyot, ta'lim, moliyaviy xizmatlar va elektron hukumat orqali fuqarolarning kundalik ehtiyojlarini qondirish yanada osonlashadi. Ayniqsa, pandemiya davrida ko'rinib turganidek, raqamli infratuzilmaning kuchli bo'lishi jamiyat uchun juda zarur ekanligi aniqlandi. Bu jarayonning dolzarbligi va ahamiyati O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida aniq aks etib, "Raqamli O'zbekiston — 2030" dasturi ushbu yo'nalishning ustuvorligini ko'rsatadi. Ushbu dastur O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, AKT infratuzilmasini kengaytirish, ta'lim tizimini raqamlashtirish, elektron hukumat xizmatlarini takomillashtirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Shu bois, mazkur ishda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni, uning ahamiyati, amalga oshirilayotgan islohotlar va qo'lga kiritilgan natijalar keng ko'lamda tahlil qilinadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiy o'sishi, bandlikni oshirish, xalq farovonligini yaxshilash va zamonaviy bozor iqtisodiyotiga moslashishda qanday rol o'ynayotgani o'rganiladi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot yo'lida duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ko'rib chiqiladi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, shu bilan birga iqtisodiyotni yanada raqobatbardosh va innovatsion

holatga keltirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli ushbu yo‘nalishni rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi.

Raqamli iqtisodiyot sohasida oshirilgan so‘nggi amaliy loyihalar va innovatsion tashabbuslar tahlil qilindi. Masalan, elektron hukumat, elektron to‘lov tizimlari, onlayn ta‘lim va telemeditsina kabi yo‘nalishlarda erishilgan natijalar ko‘rib chiqilib, ularning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hisssasi aniqlashga harakat qilindi.

Tadqiqotda shuningdek, taqqoslash metodidan foydalangan holda, O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tish sur‘ati va strategiyasini boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarnikilar bilan solishtirish amalga oshirildi. Bu mamlakatlar tajribasi o‘zgarishlar va islohotlarni tezroq va samaraliroq amalga oshirishda O‘zbekiston uchun muhim qo‘llanma bo‘ldi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyoj oxirgi yillarda global pandemiya davrida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ldi. Pandemiya sababli ko‘plab tashkilotlar masofaviy ishlash tizimiga o‘tishdi, bu esa raqamli infratuzilmaga bo‘lgan talabni yanada oshirdi. Masalan, o‘quvchilar va talabalarning onlayn o‘qish tizimiga o‘tishi, kompaniyalarning masofaviy faoliyat yuritishlari yoki sog‘liqni saqlash tizimidagi elektron xizmatlarning kengayishi raqamli iqtisodiyotning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy statistik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot faoliyati yaqindan o‘rganildi va ma’lumotlar bazasi yig‘ildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o‘stirish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi. Davlatning o‘z fuqarolari uchun elektron xizmatlarni ko‘rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif

etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismibo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli sur‘atlar bilan amalga oshmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” dasturi asosida ko‘plab sohalarda raqamli texnologiyalar keng joriy etildi. Jumladan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish natijasida elektron hukumat tizimi rivojlandi va fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ancha osonlashdi.

Shuningdek, AKT infratuzilmasining kengayishi tufayli internet qamrovi va sifati yaxshilandi, bu esa aholining raqamli xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirdi. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar joriy etilib, onlayn ta’lim va masofaviy o‘qish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa kadrlar malakasini oshirish va yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, elektron tijorat, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), startaplar va innovatsion biznes tarmoqlari rivojlandi, yangi ish o‘rinlari yaratildi. Bu raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonining iqtisodiy samaradorlikni oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga salbiy jihatlari raqamli iqtisodiyotga o‘tishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, mamlakatning ayrim hududlarida internet qamrovi pastligi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi va kiberxavfsizlik masalalarining dolzarbligi saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonini yanada samarali amalga oshirish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish va investitsiyalarni ko‘paytirish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Bu o‘tish nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, balki yangi ish o‘rinlarini barpo etish va davlat xizmatlarini yanada sifatli, shaffof va qulay shaklga keltirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot

mamlakatning global bozorga chiqish salohiyatini oshiradi hamda innovatsion taraqqiyotga yo‘l ochadi. Shunday ekan, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va keng qo‘llash O‘zbekistonning barqaror va zamonaviy iqtisodiy tizimga aylanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Evans, P., & Gawer, A. (2016). *The Rise of the Platform Enterprise: A Global Survey*. The Emerging Platform Economy Series.
2. Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill Education.
3. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. - 756
4. O‘lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
5. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
6. Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
7. Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.

MASHINALI O‘QITISHNING ASOSIY TURLARI VA O‘QITISH MODELI

Xasanova Mohichexra Farxod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich talabasi

xasanovamohichehra8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan sun'iy intellektning ajralmas qismi bo'lgan mashinali o'qitish (Machine Learning) tushunchasi, uning asosiy turlari, ishlash prinsipi va amaliy qo'llanilish sohalari yoritiladi. Shuningdek, nazorat ostida, nazoratsiz, yarim nazorat ostida va mustahkamlangan o'qitish modellari o'rganiladi. Maqola mashinali o'qitish texnologiyalariga qiziqqan talabalar va tadqiqotchilar uchun dastlabki qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Mashinali o'qitish, sun'iy intellekt, nazorat ostida o'qitish, nazoratsiz o'qitish, yarim nazorat ostida o'qitish, chuqur o'rganish, algoritm.


KIRISH

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi mashinali o'qitishga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Mashinali o'qitish — bu kompyuter tizimlariga ma'lumotlardan xulosa chiqarish va oldindan belgilangan vazifalarni mustaqil bajarishni o'rgatuvchi algoritmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq sohadir. U orqali tizimlar yangi ma'lumotlar asosida o'z faoliyatini takomillashtirib boradi.

Mashinali o'qitish modelning o'quv jarayoni va beriladigan ma'lumotlarga bog'liq ravishda uch asosiy turga bo'linadi[1]:

- Nazorat ostida o'qitish (Supervised Learning)
- Nazoratsiz o'qitish (Unsupervised Learning)
- Yarim nazorat ostida o'qitish (Semi-Supervised Learning)
- Mustahkamlangan o'qitish (Reinforcement Learning)

Bu turlarni o'quv ma'lumotlari bilan ishlash uslubi, qo'llanilish sohasi va asosiy algoritmlari bo'yicha ko'rib chiqamiz.



➤ **Nazorat ostida o'qitish (Supervised Learning)**

Bu usulda kompyuter o'qituvchiga o'xshash tizim yordamida o'rganadi. Ya'ni, unga oldindan to'g'ri javoblar bilan ma'lumotlar beriladi, va u shular asosida o'z bilimini oshiradi.

Misol uchun tasavvur qiling, sizga olmalar va bananlarning suratlari bor. Har bir suratga yorliq qo'yilgan:

- ☐ **“Bu olma”**
- ☐ **“Bu banan”**

Kompyuter bu suratlarni ko'rib, olma bilan bananning farqini o'rganadi. Keyinchalik, unga yangi meva rasmi ko'rsatilsa, u “Bu olma” yoki “Bu banan” deb to'g'ri ajratib bera oladi.

1. **Tasniflash (Tasniflash)** – Model ma'lumotlarni rejalashtirish kategoriyalarga ajratadi.

- Misol: Spam yoki oddiy xabar (spam yoki oddiy xabar).
- Algoritmlar: Logistik regressiya, Qaror yuklab olish, K-yaqin qo'shnilar (KNN), Neuron tarmoqlari.

2. **Bashorat qilish (Regression)** – Model ma'lumotlarga qarab uzluksiz qiymatlarni taxmin qiladi.

- Misol: Uy narxini bashorat qilish.
- Algoritmlar: Chiziqli regressiya, Polinomial regressiya.

➤ **Nazoratsiz o'qitish (Nazoratsiz o'qitish)**

Nazoratsiz o'qitishda **modelga hech qanday ruxsat berilmaydi** . Model mustaqil ravishda ma'lumot yashirin naqsh va bog'liqliklarni aniqlaydi[2].

Nazoratsiz o'qitish qanday ishlaydi?

Misol uchun, do'konda sotishning xarid qilish odatlari haqida ma'lumot yig'ilgan bo'lsa, model mahsulotlarini mumkin bo'lgan mahsulotlarga yordami.

Bu ushlab o'rnatish uchun foydalanishda kompyuter:

1. **Klasterni baholash (Clustering)** – Ma'lumotlarni o'xshashlik asosida kelib chiqadigan mahsulotlar.
 - Misol: Mijozlarni xarid qilish odatlariga qarab segmentlarga bo'lish.
 - Algoritmlar: K-means, DBSCAN, ierarxik klasterlash.
2. **Assotsiatsiyalarni aniqlash (Association Rules)** – Ma'lumotlarga bog'liqlikni topish.
 - Mahsulot sotib olingan narxlari (Supermark Basket Analysis).
 - Algoritmlar: Apriori, FP-Growth.

ChatGPT-ni mashinani o'rganishga asoslangan chatbot deb hisoblash mumkin, chunki u GPT (generativ oldindan o'qitilgan transformator) arxitekturasi, neyron tarmoq turi va chuqur o'rganish modeliga asoslangan. ChatGPT insonga o'xshash suhbatlarni tushunish va yaratish uchun ushbu mashinani o'rganish jarayonlaridan foydalanadi.

➤ **Yarim nazorat ostida o'qitish (Semi-Supervised Learning).**

Semi-supervised learning (SSL) - bu mashina o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nazoratli (supervised) va nazoratsiz (unsupervised) o'qitish usullarining afzalliklarini birlashtiradi. Bu usulda bizda cheklab qo'yilgan miqdordagi label (yorliq)langan ma'lumotlar va ko'p miqdorda label lanmagan ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Yarim nazorat ostida o'qitishning asosiy maqsadi

belgilangan ma'lumotlardan foydalangan holda belgilanmagan ma'lumotlarni ham o'rganish va ulardan foydalanishdir. Bu usulda model belgilangan ma'lumotlar yordamida o'qitiladi va keyin belgilanmagan ma'lumotlardan foydalanib, o'z bilimlarini yaxshilaydi[3].

Mustahkamlangan o'qitish (Reinforcement Learning)

Mustahkamlangan o'qitish — bu agent (kompyuter tizimi) muayyan muhitda harakat qilib, tajriba orqali o'rganadigan mashinali o'qitish turi hisoblanadi. Bu usulda model har bir harakati uchun mukofot (reward) yoki jazo (penalty) oladi. Modelning asosiy maqsadi — eng katta umumiy mukofotni qo'lga kiritish.

Misol: O'yinchi video o'yin o'ynayapti, har bir to'g'ri harakat uchun ball oladi, xatolik uchun esa jarima. Vaqt o'tishi bilan o'yinchi eng ko'p ball to'plash strategiyasini o'rganadi. Mustahkamlangan o'qitishda ham xuddi shunday — agent o'z muhitida optimal harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqadi.

Asosiy komponentlar:

- Agent – qaror qabul qiluvchi tizim.
- Muhit (Environment) – agent harakat qiladigan olam.
- Harakatlar (Actions) – agent tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan harakatlar.
- Mukofot (Reward) – agent harakati uchun olinadigan natija (raqamli qiymat).

Algoritmlar: Q-learning, Deep Q-Network (DQN), SARSA, Policy Gradient, Actor-Critic.

Mashinali o'qitish modellarining ishlash prinsipi

Mashinali o'qitish modeli ma'lumotlar asosida qaror qabul qiladigan algoritim bo'lib, u quyidagi bosqichlarda ishlaydi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish – Modellarni o'qitish uchun kerakli hajmda va sifatli ma'lumotlar to'planadi.

2. Oldindan ishlov berish (Preprocessing) – Ma'lumot tozalanadi, kodlanadi, normallashtiriladi.
3. Model tanlash – Masalani yechish uchun mos mashinali o'qitish algoritmi tanlanadi (masalan, KNN, SVM, Neyron tarmoq).
4. Modelni o'qitish – Belgilangan algoritm asosida model mavjud ma'lumotlarda o'qitiladi.
5. Baholash (Evaluation) – Modelning ishlash sifati aniqlik, aniqlovchanlik, F1-skori kabi ko'rsatkichlar orqali tekshiriladi.
6. Qo'llash (Deployment) – Tayyor model real muhitga joriy etiladi (masalan, veb-ilova, mobil dastur orqali).

Mashinali o'qitishning qo'llanilish sohalari

Mashinali o'qitish bugungi kunda turli sohalarda keng qo'llanilmoqda[4]:

Tibbiyot – Kasalliklarni oldindan aniqlash, genetik tahlil qilish, dorilarni ishlab chiqish.

Moliyaviy xizmatlar – Kredit risklarini baholash, firibgarlikni aniqlash, investitsiya prognozlari.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv – Avtonom avtomobillar, robototexnika, aqlli uy tizimlari.

Marketing va tavsiyalar tizimi – Mijozlarga mos mahsulotlar tavsiya qilish (Amazon, Netflix).

Ta'lim – Talabaniy bilim darajasini aniqlash, testlarni avtomatik tekshirish, interaktiv o'quv tizimlari.

Til va matnni qayta ishlash (NLP) – Tilni avtomatik tarjima qilish, chatbotlar, matn tahlili (masalan: ChatGPT).

XULOSA. Mashinali o'qitish zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining asosi bo'lib, ma'lumotlardan o'rganish va ular asosida qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada mashinali o'qitishning asosiy turlari — nazorat ostida, nazoratsiz,

yarim nazorat ostida va mustahkamlangan o'qitish modellarining nazariy va amaliy jihatlari yoritildi. Har bir usulning o'ziga xos yondashuvi, algoritmlari va qo'llanish doirasi mavjud bo'lib, ular real hayotdagi turli muammolarni hal qilishda samarali ishlaydi.

Nazorat ostida o'qitish tasniflash va regressiya kabi muammolarni yechishda, nazoratsiz o'qitish ma'lumotlar strukturasi aniqlashda, yarim nazoratli yondashuv esa belgilash xarajatini kamaytirishda foydalidir. Mustahkamlangan o'qitish esa o'z-o'zini mukofot asosida rivojlantiruvchi tizimlar yaratishda alohida ahamiyatga ega.

Kelajakda ushbu modellar yanada takomillashib, tibbiyotdan tortib transport, moliya, ta'lim va sanoatgacha bo'lgan keng sohalarda qo'llanilishi ortib boradi. Shu bois, mashinali o'qitish turlari va ularning modellarini chuqur o'rganish, ulardan to'g'ri foydalanish hozirgi zamon mutaxassislarining muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.geeksforgeeks.org/machine-learning/types-of-machine-learning/>
2. Liu, B., & Liu, B. (2011). Supervised learning. Web Data Mining: Exploring Hyperlinks, Contents, and Usage Data, 63-132.
3. Bennin, K. E., Keung, J., Monden, A., Kamei, Y., & Ubayashi, N. (2016, June). Investigating the effects of balanced training and testing datasets on effort-aware fault prediction models. In 2016 IEEE 40th annual Computer software and applications conference (COMPSAC) (Vol. 1, pp. 154-163). IEEE.
4. Lecun, Y. & Bengio, Y. (1995), Convolutional Networks for Images, Speech and Time Series, The MIT Press, pp. 255–258.
5. Hiriart-Urruty, J.-B. & Lemar´echal, C. (1996), Convex Analysis and Minimization Algorithms: Part 1: Fundamentals, Vol. 1, Springer.
6. Devroye, L., Györfi, L. & Lugosi, G. (1996), A Probabilistic Theory of Pattern Recognition, Springer

SANOQ SISTEMALARI

Qurbonqulova Saodat Burxon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

saodatqurbonqulova691@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola sanoq sistemalarining kelib chiqishi, turlari, matematik asoslari va zamonaviy informatika sohasidagi muhim o'rnini keng yoritadi. O'nlik, ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sistemalar, shuningdek, ular o'rtasidagi aylantirish jarayonlari misollar va formulalar bilan tushuntiriladi. Sanoq sistemalarining qadimgi sivilizatsiyalardagi tarixiy rivojlanishi, dasturlash, kompyuter arxitekturasini, raqamli mantiq sxemalari, kvant hisoblash va kriptografiyadagi qo'llanilishi alohida e'tibor qaratiladi. Maqola ta'lim sohasida sanoq sistemalarini o'qitish usullari va zamonaviy dasturiy vositalar yordamida o'quvchilarga ushbu tushunchalarni osonlashtirish usullarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Sanoq sistemi, ikkilik, o'nlik, o'n oltilik, sakkizlik, kompyuter arxitekturasini, aylantirish, raqamli mantiq, kvant hisoblash, kriptografiya, ta'lim

Kirish. Sanoq sistemalarini insoniyat tomonidan sonlarni ifodalash va hisoblash uchun qadimdan ishlatib kelingan matematik vositadir. Qadimgi Misrda 10-asosli, Bobilda 60-asosli, Maya sivilizatsiyasida 20-asosli sistemalar qo'llanilgan bo'lib, bu sistemalar zamonaviy matematika va informatikaning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari davrida sanoq sistemalarini, ayniqsa ikkilik sistema, kompyuterlarning asosiy tili sifatida muhim o'rin tutadi. Kompyuterlar axborotni faqat 0 va 1 raqamlari yordamida qayta ishlaydi, saqlaydi va uzatadi. Shuning uchun sanoq sistemalarini chuqur o'rganish, ular o'rtasidagi aylantirish usullarini bilish va ularni amaliy sohalarida qo'llash informatika sohasidagi har bir mutaxassis uchun zarurdir. Ushbu maqola sanoq sistemalarining nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va ta'limdagi ahamiyatini keng yoritadi. Asosiy qism 1. Sanoq sistemalarini tushunchasi Sanoq sistemasi — sonlarni ifodalash va ularda arifmetik

amallar bajarish uchun ishlatiladigan qoidalar majmuidir. Ular ikki asosiy turga bo'linadi:

Pozitsion sistemalar: raqamning qiymati uning son ichidagi o'rniga bog'liq. Masalan, o'nlik sistemada 345 sonidagi "5" 5 birlikni, "4" 40 ni, "3" 300 ni bildiradi.

Nopozitsion sistemalar: raqamning qiymati pozitsiyasidan qat'i nazar doim bir xil bo'ladi. Masalan, Rim raqamlari (I=1, V=5, X=10) nopozitsion sistemaga misol bo'ladi. Rim raqamlari qadimgi Rimda savdo va hisob-kitoblarda ishlatilgan, lekin ularning arifmetik amallarni bajarishdagi cheklovlari tufayli zamonaviy matematikada kam qo'llaniladi.

Asosiy qism. Sanoq sistemalari insoniyat tarixida muhim o'rin tutadi. Quyida asosiy sivilizatsiyalardagi sanoq sistemalari qisqacha ko'rib chiqiladi: Qadimgi Misr: 10-asosli sistema ishlatgan, bu zamonaviy o'nlik sistemaga asos bo'ldi. Ular iyerogliflar orqali sonlarni ifodalagan. Bobil sivilizatsiyasi: 60-asosli sistema (sexagesimal) qo'llanilgan, bu hozirgi soat (60 daqiqa) va burchak o'lchovlarida (360 daraja) saqlanib qolgan. Maya sivilizatsiyasi: 20-asosli sistema ishlatilgan, bu ularning barmoq va oyoq barmoqlari soniga asoslangan. Leibniz va ikkilik sistema: 17-asrda nemis matematigi Gottfried Wilhelm Leibniz ikkilik sistemani taklif qildi, bu zamonaviy kompyuterlarning asosiga aylandi.

Sanoq sistemasi	Asosi	Belgilar	Misol	O'nlikdagi qiymati
O'nlik	10	0-9	345	345
Ikkilik	2	0,1	10101101	173
Sakkizlik	8	0-7	531	345
O'n oltilik	16	0-9,A-F	AD3	2771

1-jadval. Asosiy sanoq sistemalari.

Sanoq sistemalari o'rtasida aylantirish informatika amaliyotida muhim o'rin tutadi. Quyida asosiy aylantirish usullari va formulalar keltiriladi:

1. Ikkilikdan o'nlikka: $(N)_{2=}\sum_{i=0}^k a_i 2^i$

Misol: $(1011)_2 = 1 \times 2^3 + 0 \times 2^2 + 1 \times 2^1 + 1 \times 2^0 = 11$

2.O‘nlikdan ikkilikka: qoldiqlarni yozish usuli orqali

$$156 \div 2 = 78, \text{qoldiq} = 0$$

$$78 \div 2 = 39, \text{qoldiq} = 0$$

$$39 \div 2 = 19, \text{qoldiq} = 1$$

$$19 \div 2 = 9, \text{qoldiq} = 1$$

$$9 \div 2 = 4, \text{qoldiq} = 1$$

$$4 \div 2 = 2, \text{qoldiq} = 0$$

$$2 \div 2 = 1, \text{qoldiq} = 0$$

$$1 \div 2 = 0, \text{qoldiq} = 1$$

Natija: $(10011100)_2$

3.O‘nlikdan sakkizlikka:

$$156 \div 8 = 19, \text{qoldiq} = 4$$

$$19 \div 8 = 2, \text{qoldiq} = 3$$

$$2 \div 8 = 0, \text{qoldiq} = 2$$

Natija: $(234)_8$

4.Ikkilikdan o‘n oltilikka: $(10101101)_2$ ni to‘rtlik guruhlariga bo‘lamiz.

$$1010|1101 \quad 1010=10=A, \quad 1101=13=D$$

Natija: $(AD)_{16}$

5.Sakkizlikdan o‘n oltilikka: $(531)_8$ ni avval ikkilik shaklga o‘tkazamiz.

$5=101, 3=011, 1=001 \rightarrow (101011001)_2$. So‘ng orqa tomondan to‘rtlik guruhlariga ajratamiz: $1|0101|1001, 1=1, 0101=5, 1001=9 \rightarrow (159)_{16}$

Amaliy qo‘llanilish. Sanoq sistemalari quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

Dasturlash: Ikkilik va o‘n oltilik sistemalar past darajadagi dasturlashda (C, Assembly) xotira manzillarini boshqarishda ishlatiladi. Masalan, $0x7FFF$ xotira manzili.

Raqamli mantiq: Ikkilik sistema AND, OR, NOT mantiqiy amallarida asosiy hisoblanadi. Masalan, protsessor registrari 0 va 1 lardan iborat.

Rang kodlari: O'n oltilik sistema veb-dizaynda ranglarni ifodalaydi (masalan, #FF0000 qizil rang).

Kriptografiya: O'n oltilik sistema hash funksiyalarida (SHA-256) va raqamli imzolarda ishlatiladi.

Kvant hisoblash: Qubit'lar ikkilik sistemaga asoslanadi, lekin superpozitsiya va chigallik tufayli yangi hisoblash usullari talab qilinadi.

Blokcheyn: Tranzaksiya xeshlari o'n oltilik shaklda ifodalanadi (masalan, 0x1a2b...).

Xulosa. Sanoq sistemalari informatika va raqamli texnologiyalarning asosiy tushunchasidir. Ular qadimgi sivilizatsiyalardan tortib zamonaviy kvant hisoblashgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sistemalar kompyuter arxitekturasini, dasturlash va raqamli qurilmalarda muhim o'rin tutadi. Sanoq sistemalarini o'rganish orqali o'quvchilar sonlarni turli asoslarda ifodalash, aylantirish va zamonaviy texnologiyalarga tatbiq etish ko'nikmalarini egallaydi. Kelajakda sanoq sistemalari yangi texnologik yutuqlarda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanenbaum, A. S., & Austin, T. (2013). Structured Computer Organization (6th ed.). Pearson.
2. Mano, M. M., & Ciletti, M. D. (2017). Digital Design (6th ed.). Pearson.
3. Stallings, W. (2019). Computer Organization and Architecture (10th ed.). Pearson.
4. Savelyev, A. A. (2009). Osnovy informatiki i vychislitel'noy tekhniki. Moskva: Vysshaya shkola.
5. Gulyamov, S. Q., & Raxmatov, F. Sh. (2020). Axborot texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
6. Knuth, D. E. (1997). The Art of Computer Programming, Volume 1: Fundamental Algorithms (3rd ed.). Addison-Wesley.
7. Cormen, T. H., Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). Introduction to Algorithms (3rd ed.). MIT Press.

8. Harris, D. M., & Harris, S. L. (2015). Digital Design and Computer Architecture (2nd ed.). Morgan Kaufmann.
9. (Raqamli dizayn va kompyuter arxitekturasida ikkilik va o'n oltilik sistemalarning amaliy qo'llanilishi.)
10. Null, L., & Lobur, J. (2014). The Essentials of Computer Organization and Architecture (4th ed.). Jones & Bartlett Learning. (Kompyuter tashkiloti va sanoq sistemalarining asosiy prinsiplari bo'yicha o'quvchilar uchun qulay manba.)
11. Xamdamov, U. R., & To'xtasinov, I. M. (2018). Informatika va axborot texnologiyalari. Toshkent: Fan va Texnologiya. (O'zbek tilida informatika sohasiga kirish, sanoq sistemalarining ta'limdagi o'rni haqida.)
12. Patterson, D. A., & Hennessy, J. L. (2017). Computer Organization and Design: The Hardware/Software Interface (5th ed.). Morgan Kaufmann. (Sanoq sistemalarining apparat va dasturiy ta'minot o'zaro ta'sirida qo'llanilishi.)
13. Avezov, A. A., & Qodirov, M. M. (2021). Raqamli texnologiyalar va kompyuter tizimlari. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi Nashriyoti. (O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va sanoq sistemalari bo'yicha mahalliy manba.)
14. Wakerly, J. F. (2005). Digital Design: Principles and Practices (4th ed.). Pearson Education. (Raqamli sxemalar va sanoq sistemalarining dizayndagi qo'llanilishi haqida.)
15. Bryant, R. E., & O'Hallaron, D. R. (2015). Computer Systems: A Programmer's Perspective (3rd ed.). Pearson Education. (Dasturchilar nuqtai nazaridan sanoq sistemalarining kompyuter tizimlaridagi o'rni.) To'rayev, B. X., & Mirzayev, N. N. (2019). Kompyuter tarmoqlari va axborot xavfsizligi. Toshkent: Sharq Nashriyoti.

GLOBAL ECONOMIC INTEGRATION AND ITS ADVANTAGES

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

*Student of Jizzakh Branch of
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan*

Annotation: This paper explores the concept of global economic integration and its impact on the economy. It examines the advantages of integration based on international economic cooperation, trade and investment flows, and technological exchange between countries. Global integration enhances economic efficiency, creates new job opportunities, and strengthens the competitiveness of nations. Moreover, it plays a crucial role in ensuring economic and political stability.

Keywords: International economic cooperation, investment flow, competitiveness, digital economy, internet and ICT, open economy.

In today's globalized world, international economic integration has become a well-recognized phenomenon. As countries increasingly engage in cross-border trade and investments, the nature and forms of economic integration have become the subject of extensive academic research. By studying the key drivers and processes, such research helps clarify the economic, political, and social dynamics that shape the global economic landscape. A thorough understanding of the nature and forms of international economic integration provides policymakers and scholars with valuable insights into the challenges and opportunities that arise from deeper interdependence between states.

One of the main features of modern globalization is the growing opportunity to effectively utilize human intellectual potential through the free movement of capital, goods, services, and labor. Under the influence of this factor, developing countries have gained the ability to benefit from globalization and accelerate their socio-economic development. However, neglecting this aspect in economic policymaking may lead to negative consequences.

Globalization accelerates the unification of prices and the quality of consumer goods, while global competition requires constant improvement. Economic isolation, protectionism, and limited exposure to international markets hinder the optimal allocation and use of resources, slowing economic growth. The globalization process also creates favorable conditions for the development of human capital. The growing pace of international exchange in research, education, and practical experience through joint projects and overseas training has positioned human capital as a key innovative driver in national economies.

The development of the internet and information and communication technologies (ICT) has expanded the operational scope of economic entities. With the help of these technologies, businesses are gaining access to essential information at lower costs. Furthermore, they are achieving new levels of efficiency in management processes, improving economic potential, and making timely decisions in response to supply and demand changes.³

Globalization processes affect the economy of every country participating in the world economy to a certain extent, and in turn, these countries are also influenced by it. Various market participants act in their own interests, creating a chain reaction. Due to the constant changes in their modes of operation, the degree of interdependence among global economic actors is increasing. As G. Fisher emphasized, there exists a unique mechanism for the spread of global changes in the world economy. The “Great Depression” serves as an example, during which the crisis spread from one country to another in a chain-like manner: contraction of markets, loss of capital, declining demand, reduction in production, imposition of customs barriers on imports by governments, decrease in the volume of international trade, and consequently, a decline in production in trading partner countries.⁴

Research results indicate that global economic integration is becoming an essential component of the modern world economy. This process significantly

³ A.M.Alimov. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. -T.: «Fan va texnologiya», 2016, 276 bet.

⁴ Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, нац Автореферат докторской диссертации. - М., 2000. - 12 с

increases economic efficiency through the expansion of trade volumes between countries, the liberalization of the flow of goods and services, and the acceleration of technology and investment movements. As the competitive environment intensifies, producers are striving to optimize product quality and reduce production costs, which ultimately benefits consumers.

Another important result of integration is the expansion of opportunities for international companies to enter new markets. In such an environment, not only large corporations but also small and medium-sized enterprises are seeking to establish operations in other countries. This increases the volume of foreign direct investment and revitalizes local markets. As investment inflows rise, new production capacities are created, technological innovations are implemented more rapidly, and overall economic growth is stimulated.

Global integration also accelerates technological development. Advanced innovative solutions and digital technologies available in developed countries quickly spread to other nations. As a result, technological inequality decreases, production efficiency increases, and new sectors such as the digital economy, e-commerce, and financial technologies continue to grow and evolve.

Global integration also has a positive impact on the labor market. The increase in trade and production volumes leads to the creation of new jobs. Through international projects, infrastructure initiatives, and multilateral cooperation programs, the demand for qualified personnel is growing. This, in turn, helps to increase household incomes and improve living standards.

Moreover, economic integration plays a positive role in strengthening political stability. As mutual economic interdependence between countries increases, the likelihood of conflicts decreases, and the culture of cooperation and dialogue is enhanced. Integrated states often establish strategic cooperation in environmental, social, and cultural spheres as well. At the same time, global integration also stimulates social development. For example, in areas such as education, healthcare, and digital services, many advanced international experiences are being widely

implemented through global projects. This contributes to the development of human capital and the overall well-being of society.

Overall, global economic integration is becoming a powerful driver not only for economic but also for political, technological, and social development for countries around the world. It helps national economic systems become more competitive, open, and stable.


References

8. Todaro, M.P., & Smith, S.C. *Economic Development* (12th Edition). – Pearson Education, 2020.
9. World Bank. *World Development Report 2023: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. – Washington D.C.: The World Bank Group, 2023.
10. International Monetary Fund (IMF). *Global Economic Outlook Report*. – Washington D.C.: IMF, 2023.
- Shodmonov Sh.Sh., Gʻafurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. - 756
11. Oʻlmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
12. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
13. Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
14. Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.

15. . Xudoyorov R., Sultonaliyeva Z. IQTISODIY INDEKSLARNING TURLARI VA UNING AHAMIYATI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14547464> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – С. 18-20.

16. A.B. Bobojonov. Raqamli biznes modellar. 0 ‘quv qo‘llanma. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021,196 b

17. Кругман П., Обстфельд М. *Международная экономика. Теория и политика.* – Москва: Вильямс, 2020.



MOBIL ILOVALAR ORQALI ZAMONAVIY SAVDO MODEL

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mobil ilovalar yordamida zamonaviy savdo modelining asosiy tamoyillari va afzalliklari tahlil qilinadi. Mobil savdo modeli mijozlarga qulaylik yaratib, istalgan vaqtda va joyda mahsulot hamda xizmatlarni xarid qilish imkonini beradi. Maqolada mobil ilovalarda qoʻllaniladigan texnologiyalar, toʻlov tizimlari, shaxsiylashtirish va mijozlarga xizmat koʻrsatish usullari koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar : Mobil ilovalar, elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, mobil toʻlov tizimlari, sunʼiy intellekt, raqamli transformatsiya, big data, foydalanuvchi interfeysi, mobil texnologiyalar.

Soʻnggi yillarda raqamli texnologiyalar va internet tarmogʻining keng tarqalishi savdo sohasida jiddiy oʻzgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, mobil qurilmalarning kundalik hayotda keng qoʻllanilishi natijasida, mahsulot va xizmatlarni xarid qilish shakli anʼanaviy usullardan sezilarli darajada farq qiladigan yangi savdo modeli mobil ilovalar orqali savdo shakliga aylandi. Ushbu model nafaqat xaridorlarga qulaylik yaratib, ularni tez va samarali xizmat bilan taʼminlaydi, balki korxonalar uchun ham yangi bozorlarga kirish va mijozlar bilan yanada yaqinroq aloqada boʻlish imkonini beradi.

Bugungi kunda koʻplab yirik kompaniyalar Amazon, AliExpress, Uber va boshqalar mobil ilovalar orqali mijozlar bilan bogʻlanishni afzal koʻrmoqda. Shuning uchun ham, mobil ilovalar yordamida zamonaviy savdo modelini oʻrganish, uning

samaradorligini tahlil qilish va kelajakda qanday yo‘nalishlarda rivojlantirish mumkinligini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlillar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, mobil ilovalar orqali savdo modeli bir qator afzalliklar va imkoniyatlarga ega. Eng avvalo, u mijozlarga istalgan joyda va istalgan vaqtda xarid qilish imkoniyatini yaratadi. Bu ayniqsa hozirgi tezkor hayot ritmida juda muhimdir. Mobil ilovalarda shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalari keng qo‘llanilmoqda. Foydalanuvchilarning xarid tarixi va qiziqishlari asosida ular uchun maxsus chegirmalar, aksiyalar taklif etiladi. Bu esa xaridlarni ko‘paytirishga va mijozlar sadoqatini oshirishga yordam beradi. Texnologik jihatdan, mobil to‘lov tizimlarining rivojlanishi savdoni yanada tez va xavfsiz amalga oshirishga imkon beradi. Apple Pay, Google Pay kabi xizmatlar bilan integratsiya qilinishi natijasida xaridorlar uchun to‘lov jarayoni osonlashadi.

Yuqoridagi omillar natijasida mobil ilovalar orqali savdo hajmi an’anaviy veb-saytlar orqali amalga oshirilayotgan savdoga qaraganda tez sur’atlarda o‘sib bormoqda. Shuningdek, bu model kichik va o‘rta biznes vakillari uchun ham yangi imkoniyatlar ochmoqda, chunki ularga o‘z mahsulotlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi.

Mobil ilovalar ishlab chiqish sohasining rivojlanishi zamonaviy texnologiyalarni kundalik hayotga tatbiq etishda muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda smartfonlarning keng tarqalishi va internetga doimiy ulanish imkoniyatlari mobil ilovalar yaratish va foydalanish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bugungi kunda mobil ilovalar faqatgina kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va boshqa ko'plab sohalarda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, ilovalar orqali yangi biznes modellarini yaratish, foydalanuvchilarni jalb qilish va xizmatlarni modernizatsiya qilish mumkin.

Mobil ilovalarni ishlab chiqish jarayoni bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi, jumladan, dasturlash tillarini tanlash, dizayn yaratish, ilova testlash va qo'llab-quvvatlash. Har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlar ishlab

chiquvchilarga turli xil texnik va dizayn jihatlarini hisobga olishni talab qiladi. Shu bilan birga, mobil ilovalar marketingi, monetizatsiya va xavfsizlik kabi masalalar ham muvaffaqiyatli ilova yaratishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda texnologik taraqqiyot, ayniqsa mobil qurilmalar va internet tarmog'ining tezkor rivojlanishi, dunyo miqyosida savdo-sotiq jarayonlarini tubdan o'zgartirib yubordi. An'anaviy savdo shakllari asta-sekinlik bilan o'z o'rnini raqamli savdo vositalariga bo'shatayotgan bir paytda, mobil ilovalar orqali savdo yuritish modeli eng ilg'or, samarali va qulay vosita sifatida shakllandi. Ushbu model bugungi kunda nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan ham faol qo'llanilmoqda. Mobil ilovalar yordamida sotuvchilar to'g'ridan-to'g'ri xaridorlar bilan aloqada bo'lib, mahsulot va xizmatlarni real vaqt rejimida taklif etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Mobil ilovalar orqali savdo yuritish modeli mijozlarga istalgan joydan va istalgan vaqtda xarid qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa an'anaviy savdo tizimlariga nisbatan sezilarli afzallik beradi. Bugungi tezkor hayot ritmida foydalanuvchilar soddalik, qulaylik va tezkorlikni qadrlaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, mobil savdo ilovalari mijozlar ehtiyojini to'liq qondira oladigan zamonaviy yechimdir. Ayniqsa, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan xizmatlar, push-bildirishnomalar, geolokatsiya asosida takliflar va boshqa innovatsion funksiyalar orqali mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish darajasi oshmoqda.

Mobil ilovalar orqali savdoning yana bir muhim jihati — bu to'lov tizimlarining soddalashgani va xavfsizlikning yuqori darajada ta'minlanishi hisoblanadi. Bugungi kunda Apple Pay, Google Pay, Click, Payme kabi mobil to'lov xizmatlari ilovalarga muvaffaqiyatli integratsiya qilinmoqda. Bu esa foydalanuvchilarga nafaqat qulaylik, balki ishonchli xizmat kafolatini ham beradi. Bundan tashqari, mijozlarning xarid tarixi, xulq-atvori va qiziqishlariga asoslanib, tavsiyalar tizimini yo'lga qo'yish orqali har bir foydalanuvchiga individual yondashuvni shakllantirish mumkin bo'lmoqda. Bu esa foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, sadoqatini oshirish va savdo hajmini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, mobil savdo modelining raqobatbardoshligi tobora kuchayib borayotgan global bozorda korxonalar uchun strategik ustunlikka aylanishi mumkin. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda ko'plab foydalanuvchilar onlayn xarid qilishga ko'nikib qolgan. Bu esa kompaniyalarni mobil savdo kanallariga jiddiy e'tibor qaratishga majbur qilmoqda. Endilikda savdo jarayoni faqatgina mahsulotni sotish bilan chegaralanmay, balki xaridor bilan mustahkam, interaktiv va doimiy aloqani yo'lga qo'yish vositasiga aylangan.

Shunga ko'ra, mobil savdo tizimlariga investitsiya kiritish — bu nafaqat texnologik modernizatsiya, balki biznes jarayonlarining to'liq transformatsiyasidir. Bu jarayonda foydalanuvchi interfeysining qulayligi, dizayn, xizmat ko'rsatish sifati, mahsulotlar haqida to'liq ma'lumotlar, tezkor logistika tizimi va albatta, xavfsizlik kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Har bir korxona uchun bu jihatlarni hisobga olgan holda, o'zining mobil savdo platformasini ishlab chiqish va uni muntazam takomillashtirib borish zaruratga aylanmoqda.

Kelajakda mobil ilovalarga asoslangan savdo modeli yanada chuqurlashib boradi. Sun'iy intellekt, chat-botlar, AR/VR texnologiyalar, ovozli boshqaruv kabi ilg'or yondashuvlar savdo jarayonini yanada interaktiv va intuitiv qiladi. Bu esa foydalanuvchi tajribasini chuqurlashtirish, ularning ehtiyoj va xatti-harakatlariga mos yechimlar taklif etish imkonini beradi. Shuningdek, katta ma'lumotlar (big data) va tahliliy platformalarning joriy etilishi bilan savdo strategiyasini yanada aniqroq rejalashtirish, samaradorlikni oshirish va xaridorlarning talablariga mos mahsulotlar yaratish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, mobil ilovalar orqali zamonaviy savdo modeli elektron tijorat sohasining eng dinamik va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Bu model bugungi talab va ehtiyojlarga javob beradigan, foydalanuvchiga qulaylik yaratadigan va biznes uchun yangi imkoniyatlar ochadigan kuchli platformadir. Shu sababli, har qanday korxona yoki tadbirkor mobil savdo tizimlariga jiddiy e'tibor qaratishi, ularni rivojlantirish va zamon talablari asosida takomillashtirib borish orqali o'z raqobatbardoshligini ta'minlashi lozim. Bu nafaqat savdoning o'sishini ta'minlaydi,

balki mijozlar sadoqatini shakllantirish va kompaniyaning umumiy brend qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Todaro, M.P., & Smith, S.C. *Economic Development* (12th Edition). – Pearson Education, 2020.
2. International Monetary Fund (IMF). *Global Economic Outlook Report*. – Washington D.C.: IMF, 2023.
3. Shodmonov Sh.Sh., Gʻafurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi (darslik)*. - T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. - 756
4. Oʻlmasov Ahmadjon. *Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik)* -T .:Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
5. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
6. Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
7. Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.
8. A.B. Bobojonov. *Raqamli biznes modellar. 0 ‘quv qo‘llanma*. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021,196 b
9. Кругман П., Обстфельд М. *Международная экономика. Теория и политика*. – Москва: Вильямс, 2020.

KRIPTOVALYUTALAR VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi haqida yoritilgan. Kriptovalyutalarning mazmuni, ularning ishlash mexanizmi, blokcheyn tizimining mohiyati va iqtisodiyotdagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: Kriptovalyutalar, blokcheyn, raqamli iqtisodiyot, markazlashmagan tizim, kriptografiya, tranzaksiya, moliyaviy innovatsiyalar, xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi global iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, kriptovalyutalar va ularning asosi bo‘lgan blokcheyn texnologiyasi zamonaviy iqtisodiy muhitda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Kriptovalyutalar markazlashmagan to‘lov vositasi sifatida moliyaviy tizimda yangi yo‘nalishlarni shakllantirmoqda. An‘anaviy bank va to‘lov tizimlariga muqobil bo‘lgan ushbu raqamli aktivlar global moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini bermoqda.

Boshqa tomondan, blokcheyn texnologiyasi esa faqat moliya sohasidagina emas, balki sogʻliqni saqlash, taʼlim, hujjatlashtirish, logistika va davlat boshqaruvi sohalarida ham keng qoʻllanilmoqda. U maʼlumotlarning ishonchliligini taʼminlash, shaffoflikni oshirish va markazlashmagan tizimlar orqali korrupsiya va firibgarlik holatlarining oldini olishda katta salohiyatga ega.

Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasining zamonaviy iqtisodiyotdagi oʻrni atroflicha yoritilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, qoʻllanilish sohalari, mavjud imkoniyatlari va duch kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu texnologiyalarning Oʻzbekiston va dunyo iqtisodiyoti rivojiga taʼsiri yuzasidan ilmiy mulohazalar ilgari suriladi.

Kriptovalyutalar – bu raqqli yoki virtual valyutalardir, ular markazlashtirilmagan tizimlarda ishlaydi va odatda blokchein texnologiyasiga asoslanadi. Kriptovalyutalar dastlab fikrga kelganidek oʻzaro toʻlovlar va investitsiyalarni amalga oshirishda anʼanaviy banklar yoki moliya institutlaridan mustaqil boʻlishni maqsad qilgan endi aytilish joizki quyida kripta valyutalar haqida ayrim asosiy maʼlumotni keltiraman

Kriptovalyutalar raqamli iqtisodiyotning muhim qismi sifatida bir qancha oʻziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, ular markazlashmagan tizimda ishlaydi, yaʼni kriptovalyutalarning boshqaruvi yoki nazorati hukumat, bank yoki boshqa markaziy muassasalar tomonidan amalga oshirilmaydi. Bu esa tranzaksiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanuvchilar oʻrtasida amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, kriptovalyutalar blokcheyn texnologiyasi asosida faoliyat yuritadi. Blokcheyn – bu oʻzgartirib boʻlmaydigan maʼlumotlar zanjiri boʻlib, u har bir tranzaksiyani xavfsiz va shaffof saqlashni taʼminlaydi. Bu esa firibgarlik va maʼlumotlarni soxtalashtirish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Kriptovalyutalar uchun yana bir muhim xususiyat – kriptografiya yordamida maʼlumotlarning himoyalanihidir. Tranzaksiyalar maxfiyligi va ishonchliligi aynan

murakkab shifrlash algoritmlari orqali ta'minlanadi. Bu texnologiya pul o'tkazmalarining xavfsizligi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko'pchilik kriptovalyutalar soni cheklangan, ya'ni ularning umumiy miqdori oldindan belgilangan. Masalan, Bitcoin'ning maksimal miqdori 21 million dona bilan cheklangan, bu uni inflyatsiyadan himoya qiladi va raqamli aktiv sifatida qiymatining barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Va nihoyat, kriptovalyutalar global miqyosda tezkor va kam xarajatli to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ularning ishlashi uchun markazlashgan oraliqchilarga ehtiyoj bo'lmagani sababli, xalqaro moliyaviy tranzaksiyalar an'anaviy tizimlarga nisbatan ancha tez va arzon amalga oshiriladi.

Umuman olganda, kriptovalyutalar – bu xavfsizlik, markazlashmagan boshqaruv, shaffoflik va tezlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadigan innovatsion moliyaviy vositalardir.

Blokcheyn texnologiyasi Kriptovalyutalar asosan blokcheyn texnologiyasiga asoslanadi. Blokcheyn – bu o'zaro bog'langan bloklardan tashkil topgan ma'lumotlar bazasidir. Har bir blok tranzaksiyalarni o'z ichiga oladi va ularni avvalgi blok bilan bog'laydi, shuning uchun tizimdagi ma'lumotlarni o'zgartirish juda qiyin bo'ladi. Bu tizim xavfsizlikni oshiradi va markaziy nazoratni kamaytiradi. Bu tizim xavfsizlikni oshiradi va markaziy nazoratni kamaytiradi. Eng mashhur kriptovalyutalar

Bitcoin (BTC): 2009-yilda yaratilgan va eng birinchi kriptovalyuta hisoblanadi. Bitkoinning asoschisi "Satoshi Nakamoto" nomi bilan tanilgan shaxs yoki guruhdir. Bitkoin ko'pincha "raqamli oltin" deb ataladi, chunki u taqdim etilgan qiymati va kam miqdorda ishlab chiqarilishi bilan oltinni eslatadi.

Ethereum (ETH): Ethereum, Bitcoindan keyin eng keng tarqalgan kripto-valyuta. Bu platforma smart-kontraktlar (o'zini-o'zi amalga oshiradigan shartnomalar) va dApps (decentralized applications – markazlashtirilmagan

dasturlar)ni ishlatish imkonini beradi. Ethereumning asosiy maqsadi markazsizlashtirilgan ilovalar va xizmatlar yaratishdir.

Binance Coin (BNB): Binance birja platformasining o'ziga xos kriptovalyutasi bo'lib, u Binance ekotizimi ichidagi turli xizmatlar uchun ishlatiladi. Ripple (XRP): Ripple to'lov tizimi va RippleNet platformasi orqali xalqaro to'lovlarni tez va arzon amalga oshirishni maqsad qilgan kriptovalyutadir.

Litecoin (LTC): Litecoin Bitcoinga o'hshash usulda ishlaydi, lekin tez orada amalga oshadi.

Kriptovalyutalar, asosan, mining (ya'ni qazib olish) jarayoni orqali yaratiladi. Bu jarayonda maxsus kompyuterlar matematik masalalarni yechish orqali yangi bloklar yaratadi va tranzaksiyalarni tasdiqlaydi. Mining jarayoni orqali yangi valyuta taqdim etiladi va tarmoqni xavfsiz saqlashga yordam beradi. Kriptovalyutalar xavfsizligi: Kriptovalyutalar blokcheyn texnologiyasi va kriptografiya orqali himoyalangani, shuning uchun ularni o'g'irlash yoki soxtalashtirish juda qiyin. Biroq, bu valyutalar birja yoki shaxsiy hamyonlarda saqlanganda xavf ostida bo'lishi mumkin. Xavfsizlik uchun foydalanuvchilar o'zlarining kriptovalyuta hamyonlarining maxfiyligini saqlashlari, ikki faktorli autentifikatsiyani yoqishlari va xavfsiz internet tarmoqlaridan foydalanishlari zarur. Kriptovalyutalar va investitsiyalar: Kriptovalyutalar tez-tez yuqori darajadagi sarmoya qilish vositalari sifatida qaraladi. Ularning qiymati bozor talabiga qarab o'zgaradi, bu esa investorlar uchun katta foyda yoki zarar keltirishi mumkin. Kriptovalyutalarga investitsiya qilishdan oldin, bozorning noaniqligini va risklarini tushunish muhimdir.

Kriptovalyutalar va qonunlarga asosan kriptovalyutalar turli mamlakatlarda turlicha tartibga solinadi. Ba'zi mamlakatlar kriptovalyutalarni qonuniy ravishda qabul qilsa, boshqalari esa ularni taqiqlaydi. Yuridik masalalar va soliq qonunlari haqida batafsil bilish uchun mahalliy qonunlarni o'rganish zarur.

Ushbu maqolada kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasining zamonaviy raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini atroflicha yoritildi. Kriptovalyutalar

markazlashmagan, xavfsiz va tezkor moliyaviy operatsiyalarni ta'minlaydigan yangi to'lov vositasi sifatida iqtisodiy tizimga innovatsion yangiliklar olib kirayotgani ko'rsatildi. Blokcheyn texnologiyasining nafaqat moliya, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab sohalarda shaffoflik, ishonchlilik va samaradorlikni oshirishda katta imkoniyatlar yaratishi ta'kidlandi.


Shuningdek, kriptovalyutalarning xavfsizlik, cheklangan miqdor, kriptografik himoya kabi asosiy xususiyatlari hamda ularning jahon iqtisodiyotiga ta'siri tushuntirildi. Biroq, ushbu texnologiyalarning keng qo'llanilishi uchun mavjud xavf-xatarlar, qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va investitsiyalarning noaniqligi kabi muammolar ham e'tiborga olindi.

Kelajakda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasini oqilona boshqarish va rivojlantirish orqali iqtisodiy jarayonlarni yanada shaffof, tezkor va demokratik qilish mumkinligi xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

18. Evans, P., & Gawer, A. (2016). *The Rise of the Platform Enterprise: A Global Survey*. The Emerging Platform Economy Series.
19. Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill Education.
20. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. - 756
21. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. 2008.
22. Crosby M., Pattanayak P., Verma S., Kalyanaraman V. Blockchain Technology: Beyond Bitcoin. Applied Innovation Review, 2016.
23. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin, 2016.

24. O'ltmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
- 25.Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
- 26.Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.



SUN'IY INTELLEKT VA UNING AVTOMATLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining zamonaviy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ma'lumotlarni qayta ishlash sohalarida samaradorlikni oshirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, avtomatlashtirish natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, jumladan ish o'rinlari tuzilmasidagi o'zgarishlar, axborot xavfsizligi va mehnat bozoridagi yangi talablar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlari: Sun'iy intellekt (SI), raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kiberxavfsizligi, elektron hukumat, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, robototexnika

Suniy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlari yoki dasturlar orqali insonning aql-idrok, fikrlash, o'rganish, muammo yechish, tilni tushunish kabi kognitiv vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Qisqasi, suniy intellekt mashinalarga inson aqliga xos bo'lgan qobiliyatlarni taqlid qilish imkonini beradi.

Suniy intellekt quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- **O'rganish (Machine Learning):** Ma'lumotlar asosida o'zini rivojlantirish va yaxshilash.
- **Tushunish va tahlil qilish:** Matn, rasm, nutq kabi turli ma'lumotlarni anglash.
- **Muammo yechish:** Murakkab vaziyatlarda mantiqiy qarorlar qabul qilish.

- **Tilni qayta ishlash (Natural Language Processing):** Inson tili bilan muloqot qilish qobiliyati.
- **Avtomatlashtirish:** Takrorlanuvchi va mehnat talab qiluvchi ishlarni bajarish.

Suniy intellekt turli sohalarda sanoat, tibbiyot, transport, moliya va boshqalarda qo'llanilib, ish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi imkoniyatlar yaratishda yordam beradi.

Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotda katta inqilob yaratmoqda. Sun'iy intellekt bu kompyuter tizimlarining inson kabi fikrlash, o'rganish, qaror qabul qilish qobiliyatlariga ega bo'lishini ta'minlovchi ilm-fan va texnologiya sohasi hisoblanadi. Avtomatlashtirish esa, inson mehnatini texnika va dasturiy vositalar orqali almashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonlar ishlab chiqarishdan tortib xizmat ko'rsatish sohalarigacha keng qo'llanilib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning kengayishi ish o'rinlari tuzilmasida o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishi va ba'zi sohalarda ishchi kuchining kamayishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda chop etilgan maqolalar, iqtisodiy tahlillar hamda texnologik rivojlanish bo'yicha xalqaro hisobotlar tahlil qilindi. Tadqiqotlar asosida sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiyotga ta'siri, ijtimoiy va texnologik jihatlari ko'rib chiqildi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ishlab chiqarish liniyalari to'liq yoki qisman avtomatlashtirilishi mumkin, bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Misol uchun, avtomobil sanoatidagi robotlashtirilgan yig'ish liniyalari

ish samaradorligini keskin oshirdi va ishlab chiqarish jarayonida xatoliklarni kamaytirdi.

Sun'iy intellekt shuningdek ish o'rinlarida ham ahamiyati katta, shu bilan birga texnologiyalari esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda, marketing strategiyalarini shakllantirishda va iste'molchilarning xatti-harakatlarini prognoz qilishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish yordamida xizmat ko'rsatish sohalarida ham tezkorlik va sifat yaxshilanmoqda. Misol uchun, bank sohasida chat-botlar, onlayn mijozlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari keng qo'llanilmoqda, bu esa mijozlar ehtiyojlarini tezroq qondirishga imkon beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida tibbiyotda diagnostika jarayonlari tezlashmoqda. Kompyuter tizimlari rentgen, MRT tasvirlarini tahlil qilib, xatoliklarni kamaytiradi va shifokorlarga yordam beradi. Bu esa sog'liqni saqlash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish ishchi kuchi tuzilmasida keskin o'zgarishlarga olib kelmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar an'anaviy oddiy ishlarni bajaruvchi xodimlarni almashtirishi natijasida ayrim sohalarda ish o'rinlari kamaymoqda. Bunga misol sifatida ishlab chiqarish, transport, ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqa sohalarni ko'rsatish mumkin.

Biroq, yangi texnologiyalar yangi kasblar va sohalarning paydo bo'lishiga ham zamin yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt mutaxassislari, ma'lumotlar olimlari (data scientist), robototexnika muhandislari kabi mutaxassisliklar talab yuqori bo'lmoqda. Shuningdek, kiberxavfsizlik mutaxassislari, texnologik konsultantlar va raqamli transformatsiya menejerlari kabi yangi kasblar yuzaga kelmoqda.

Shuning uchun mehnat bozoridagi muvozanat va o'zgarishlarga moslashuv uchun ta'lim tizimini va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish muhimdir. Ayniqsa, yoshlarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash va hayot davomida o'rganish (lifelong learning) tizimini kuchaytirish zarur.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning kengayishi bilan birga ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy maxfiylik va axborotning noto'g'ri qo'llanilishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. AI tizimlarining noto'g'ri ishlashi yoki noto'g'ri ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishi iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, noto'g'ri algoritmlar mehnat bozorida diskriminatsiyaga sabab bo'lishi yoki kredit berishda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan tizimlarning qarorlari uchun javobgarlik masalalari hali aniq emasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Shuningdek, avtomatlashtirish natijasida ayrim hududlarda iqtisodiy tengsizlik oshishi, mehnat bozorida noteng imkoniyatlar paydo bo'lishi xavfi mavjud. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan va kam rivojlangan hududlarda o'z aksini topadi. Shu bois, hukumatlar va biznes tuzilmalari ushbu muammolarni bartaraf etish uchun samarali siyosat va me'yoriy-huquqiy bazani yaratishlari lozim.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. "Sun'iy intellekt" deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi. Sun'iy intellekt (AI) -kompyuter fanining bo'limi bo'lib, u odatda inson aqlzakovati talab qilinadigan vazifalarni bajara oladigan aqlli mashinalarni yaratishga qaratilgan. AI kompyuterlarga ma'lumotlardan o'rganish va qarorlar yoki ma'lumotlar asosida bashorat qilish imkonini beruvchi algoritmva modellarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. U mashinani o'rganish, tabiiy tillarni qayta ishlash, kompyuterni ko'rish va robototexnika kabi turli kichik sohalarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt sog'liqni saqlash, moliya, transport va o'yin-kulgi kabi sohalarda keng ko'lamli ilovalarga ega va yangi innovatsiyalar va texnologiyalar bilan tez rivojlanishda davom etmoqda. Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat

odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan.


Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Ular iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi imkoniyatlar yaratish va hayot sifatini yaxshilashda katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning keng qo'llanilishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, jumladan ish o'rinlari tuzilmasidagi o'zgarishlar, axborot xavfsizligi va tengsizlik xavflarini ham yuzaga keltirmoqda.

Kelajakda bu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozorini moslashtirish va qonunchilikni takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, texnologiyalarni inson manfaatlari yo'lida ongli va mas'uliyatli qo'llash asosiy tamoyil bo'lishi lozim. Shunday qilib, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari iqtisodiy inqilob sifatida inson hayotini yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 27.O'lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
- 28.Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. (2014). Big data: A survey. *Mobile Networks and Applications*, 19(2), 171-209.
- 29.National Strategy for the Development of Artificial Intelligence in the Republic of Uzbekistan (2023).
- 30.Karol, J., & Muntean, I. (2020). Impact of automation and artificial intelligence on employment and productivity. *Journal of Economic Perspectives*, 34(4), 45-66

- 31.Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
- 32.Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
- 33.Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.



KERAMIK KOMPOZITSION MATERIALLARNING KOMPONENTLARINI TANLASH

G. K. Otaboyeva

Andijon davlat texnika instituti

“Materialshunoslik” kafedrası assistenti.

O‘zbekiston Andijon

ORCID ID: 0009-0009-6810-5742

Otaboyeva6343@gmail.com

Annatation: The process of selecting components of ceramic composite materials is related to their purpose and use, taking into account the specific characteristics of each component. A good balance between the components helps to ensure friction, mechanical strength, thermal stability and other properties of the material.

Keywords: ceramic, composite material, corrosion, dispersion, interphase, polymer, coefficient

Аннотация: Процесс подбора компонентов керамических композиционных материалов связан с их назначением и применением с учётом специфических характеристик каждого компонента. Правильный баланс между компонентами обеспечивает трение, механическую прочность, термическую устойчивость и другие свойства материала.

Ключевые слова: керамика, композиционный материал, коррозия, дисперсия, межфазный слой, полимер, коэффициент

Annatatsiya: Keramik kompozitsion materiallarning komponentlarini tanlash jarayoni ularning maqsadi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lib, har bir komponentning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Komponentlar orasidagi yaxshi muvozanat

materialning ishqalanish, mexanik kuch, issiqlik barqarorligi va boshqa xususiyatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Kalit soʻzlar: keramika, kompozitsion material, korroziya, dispers, interfaza, polimer, koeffitsiyenti

Keramik kompozitsion materiallar - bu keramika asosidagi kompozitsiyalar bo'lib, ular ikki yoki undan ortiq materiallar aralashmasidan tashkil topgan. Ular birlashgan materiallardan yaxshi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, masalan, mexanik kuch, yuqori haroratga chidamlilik, korroziyaga qarshilik va boshqa ijobiy xususiyatlar. Keramik kompozitsiyalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

Korpus materiallari va mustahkamlashtiruvchi fazalar: Keramik kompozitlarning eng keng tarqalgan turlari - bir yoki bir nechta mustahkamlashtiruvchi fazalar (masalan, tolalar yoki partikullar) yordamida asosiy keramika materiallari mustahkamlanadi. Bu kompozitsiyalar asosan yuqori kuch va mustahkamlikni talab qiladigan sanoat sohalarida qo'llaniladi.

Keramika-keramika kompozitlar: Bunday kompozitsiyalar bir-biriga o'xshash keramika materiallaridan tashkil topgan bo'lib, ular yuqori issiqlik va mexanik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Keramika-polimer kompozitlar: Polimer materiallari keramika bilan birlashtiriladi, bu esa ular ichki kuchlanishlarga chidamli va yuqori issiqlik barqarorligiga ega bo'lishiga yordam beradi.

Keramika-metal kompozitlar: Keramika va metal materiallar aralashmasi bo'lib, ular yuqori haroratda ishlash uchun zarur bo'lgan mexanik va issiqlik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Keramik kompozitsiyalarning afzalliklari:

- Yaxshi issiqlik qarshiligi
- Korroziyaga chidamli

- Mexanik kuch va mustahkamlikni oshiradi
- Yuqori haroratlarda ishlash imkoniyati

Dastlabki xomashyoni 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Barcha-keng harorat doirasida bir-biri bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadiganlar;
2. yuqori haroratda reaksiyaga kirishuvchilar;
3. kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi.

Keramik kompozitsion materiallarning puxtaligi har bir komponentning xossalari va ularning kimyoviy birlashishiga bog'liq. Masalan, matritsasi keramikali, to'ldirgichi metall dan bo'lgan keramik kompozitsion materiallarning puxtaligi agar 3-4% hajmida keramika va metall orasidagi kimyoviy bog'liqlikni oshiradigan modda qo'shilsa, 3-4 marta ortadi. Bu modda karbidlar bo'lishi mumkin. Komponentlarning qizdirib, qolipda bosim ostida ishlash («spekanie») harorati iloji boricha bir-biriga yaqin bo'lishi lozim. «Spekanie» aktivlashtirish uchun qo'shimcha kiritiladi, bunda suyuq 25 faza hosil qilib, uni tezlatadi. Masalan, Ti; TiCh; Zr. Keramik kompozitsion materiallar uchun yana bir xususiyat, komponentlar bir-birlarini yaxshi ho'llashi zarur. Keramik kompozitsion materiallar komponentlarini tanlashda ularning teplofizik xossalarini ham hisobga olish kerak. Agar sinchlovchi materialning issiqdan kengayish koeffitsiyenti matritsa materialini issiqdan kengayish koeffitsiyentidan kichik bo'lgan; sinch cho'zilib, ichki kuchlanish hosil bo'lib, ichida darz ketishi mumkin. Agar sinch koeffitsiyenti katta bo'lsa, matritsa koeffitsiyentiga nisbatan, u holda qisish kuchlanishi hosil bo'ladi va keramik kompozitsion materiallarning puxtaligi ortadi. keramik kompozitsion materiallarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri evtektik metalloksid tizimi hisoblanadi. Metallokeramika. Bu yerda sinch evtektika yo'naltirilib kristallizatsiya qilingan. Evtektik keramik kompozitsion materiallar yuqori haroratda dispers keramik kompozitsion materiallarga nisbatan ancha turg'un bo'ladi. Dispers va qatlama

keramik kompozitsion materiallar izotrop va buzilish mexanizmi keramika materiali buzilishiga o'xshaydi. Sinchlangan keramik kompozitsion materiallar puxtaligi yuqori va buzilish mexanizmi boshqacha. Tolalar kuchlarning bo'linishini ta'minlaydi, matritsadagi darzlarning yo'nalishini aniqlaydi. Keramik kompozitsion materiallarning komponentlarini tanlash jarayoni ularning maqsadi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lib, har bir komponentning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Komponentlar orasidagi yaxshi muvozanat materialning ishqalanish, mexanik kuch, issiqlik barqarorligi va boshqa xususiyatlarini ta'minlashga yordam beradi. Quyida keramik kompozitsion materiallar uchun komponentlarni tanlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy faktorlar keltirilgan:

Asosiy keramik komponent (matritsa) - materialning asosi bo'lib, uning mexanik va fizik xususiyatlarini belgilaydi. Asosiy material sifatida quyidagi keramika turlari ishlatiladi:

- Alyuminiy oksidi (Al_2O_3): Yaxshi mexanik kuch, yuqori issiqlik barqarorligi va kimyoviy chidamlilikka ega. Ko'pincha metallurgiya va elektrotexnika sohalarida ishlatiladi.
- Kremniy karbidi (SiC): Yuqori haroratga chidamlilik va korroziyaga qarshilikni ta'minlaydi. Aksariyat hollarda to'qnashuvlarga chidamli material sifatida ishlatiladi.
- Zirkoniya (ZrO_2): Issiqlikka chidamlilik va yaxshi mexanik kuch beradi, shuningdek, materialning barqarorligini oshiradi.
- Boranli keramika (BN): Yaxshi issiqlik o'tkazuvchanligi, kimyoviy inertlik va yuqori haroratga chidamlilik.

Mustahkamlovchi faza (armatura) - Kompozit materiallarning mexanik kuchini va mustahkamligini oshirish uchun turli xil mustahkamlovchi fazalar qo'shiladi. Bu fazalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- **Tolalar (masalan, karbon, bor, alyuminiy oksidi tolalari):** Tolalar materialga yuqori mexanik kuch, cho'zilish va yorilish qarshiligini beradi. Ular yuqori haroratli va yuqori kuchli ilovalarda ishlatiladi.
- **Partikulyar materiallar:** Keramika bo'laklari yoki boshqa zarrachalar, materialning mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi. Misol uchun, grafit, bor nitrit, yoki silitsiya karbidi zarrachalari ishlatiladi.

Interfaza (boshqa materiallar) - Keramik kompozitlarda interfazalarning roli juda muhim, chunki ular matritsa va mustahkamlovchi faza o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Interfaza to'g'ri tanlangan bo'lsa, bu kompozitning umumiy sifatini yaxshilaydi, chunki ularning o'zaro ta'sirini boshqaradi:

- **Ekran yoki qatlamlar:** Interfaza sifatida ishlatiladigan materiallar, masalan, yengil alyuminiy oksidi yoki zirkoniya oksidi, kompozitlarning issiqlik va mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Yaltiroq va bog'lanish materiallari - Kompozit materiallar uchun yaxshi yopishqoqlikni ta'minlash uchun qo'shimcha bog'lanish materiallari qo'llaniladi. Bu materiallar komponentlarning yaxshi birlashishini ta'minlashga yordam beradi:

- **Polimerlar:** Epoksi yoki fenol-formaldehid polimerlari materiallar orasida yaxshi yopishqoqlikni ta'minlaydi.
- **Nanomateriallar:** Nanotubular yoki nanofillament materiallar kompozitlar kuchini oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

Qo'shimcha modifikatorlar - Keramika kompozitsiyalarini o'ziga xos xususiyatlarga ega qilish uchun qo'shimcha modifikatorlar ishlatiladi:

- **Yog'och, grafit yoki boshqa yumshoq materiallar:** Bular kompozitning qattiqligini oshiradi yoki yumshoqroq qiladi.

- Fazaviy o'zgarishlarni boshqaruvchi qo'shimchalar: Bu materiallar materiallarning mikrostrukturasini yaxshilashga yordam beradi va uning haroratdagi xatti-harakatini boshqaradi.

Tanlashda e'tibor berilishi kerak bo'lgan faktlar:

- Mexanik xususiyatlar: Materialning kuchi, elastiklik moduli, yorilish va o'zgarish qarshiligi.
- Issiqlik xususiyatlari: Yuksalgan haroratlarda barqarorlik, issiqlik o'tkazuvchanlik.
- Kimyoviy chidamlilik: Korroziyaga qarshilik, suyuqliklar va gazlarga qarshi barqarorlik.
- Oson ishlab chiqarish va ishlov berish: Keramik kompozitlarni ishlab chiqarish jarayoni materialning arzonligi va samaradorligini ta'minlashi kerak.

Shunday qilib, keramik kompozitsion materiallarning komponentlarini tanlashda, ishlash sharoitlari va kerakli xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Har bir komponentning o'ziga xos vazifalari va ta'siri bo'lib, ularning to'g'ri kombinatsiyasi materialning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.P Belokurova. Polimerlarni izlashning termomekanik usuli: Polimerlar kimyosi va fizikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma. Belokurov, V.A. Burmistrov, T.A. Ageeva. Ivanovo, 2006
2. A.A. Turshatov. Polimerlarning termomekanik xususiyatlari / A.A. Turshatov. - N.Novgorod: UNN, 2005 yil
3. A.S. Shestakov. Polimerlarni izlashning fizik usullari / A.S. Shestakov. - Voronej, 2003 yil

4. O.V.Kostenko Polimerlarning termomekanik egri chiziqlari /O.V. Kostenko,T.N.Teryaeva. - Kemerovo, 2005
5. G.K.Otaboyeva. Mahalliyashtirilgan polimer kompozitsion materiallar issiqlikka bardoshlilikini oshirish./ Mashinasozlik Ilmiy-texnika jurnali №1 (Maxsus son), 2022 yil
6. G.K.Otaboyeva. Polimer kompozit materiallar turlari va xususiyatlari. / Belarus, International Conference , 2023 yil
7. G.K.Otaboyeva. Termoplast kompozitsion polimer materiallardan namunaviy qoplamalar olish va ularni turli muhitlarda qayta ishlash usullari./ Belarus, International Conference, 2023 yil
8. G.K.Otaboyeva. Polimer kompozit materiallar turlari va xususiyatlari. Yangi materiallar texnologiyasi: mashinasozlikda qo'llaniladigan polimer kompozit materiallarning rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferensiya Andijon 2022 yil
9. G.K.Otaboyeva. Radiatsion ishlov berilgan kompozitsion polimer materiallarni strukturasini o'rganish./ Ta'lim innovatsiyasi va integratsiysi Xalqaro ilmiy elektron jurnal 2024 yil
10. G.K.Otaboyeva.Termoplast kompozitsion polimer qoplama materiallarni olish texnologiyalari./ Ta'lim innovatsiyasi va integratsiysi Xalqaro ilmiy elektron jurnal 2024 yil
11. G.K.Otaboyeva. Polimer materiallarning turli muhitlarda radiatsion qayta ishlangandan so'ng xossalarini o'rganish./Ta'lim innovatsiyasi va integratsiysi Xalqaro ilmiy elektron jurnal 2024 yil
12. G.K.Otaboyeva. Характеристики наполненного пластмасса компонентами

газовой фазы ./ worldly knowledge international journal of scientific researchers 2024 yil

13. G.K.Otaboyeva. Polimer kompozitsion materiallarning issiqlikka bardoshliligini oshirish./ Mashinasozlik Ilmiy-texnika jurnali №1 (Maxsus son), 2022 yil

14. G.K.Otaboyeva. Polimer kompozit materiallar turlari va xususiyatlari./ Belarus,

International Conference. 2023yil.

15. G.K.Otaboyeva. Termoplast kompozision polimer materiallardan namunaviy qoplamalar olish va ularni turli muxitlarda qayta ishlash usullari./ Belarus, International Conference. 2023yil.

16. Kompozitsion polimer materiallarni ishlab chiqarish istiqbollari. / JMEA Journal of Modern Educational Achievements Volume 2, 2025

17. Mavlyanova, Sh Создание математической модели токарного процесса worldly knowledge international journal of scientific researchers 2024 yil

BOLALAR O‘RTASIDA DIABET VA UNING OLDINI OLISH

Yaqubova Azimaxon Raximjon qizi

Qo‘qon Universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti, “Pediatriya ishi” yo‘nalishi

1-kurs, 24-04-guruh talabasi

Chalaboyeva Zilolaxon

Qo‘qon Universiteti Andijon filiali

Email: azimayakubova0@gmail.com

Tel: +998 33 300-23-03

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar va o‘smirlar orasida uchrayotgan qandli diabet kasalligi keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Ayniqsa, 1-toifa (insulinga bog‘liq) va 2-toifa (insulinga nisbatan mustaqil) diabet turlari, ularning klinik farqlari hamda sog‘liq uchun oqibatlari ko‘rib chiqiladi. 2-toifa diabetning yosh avlod orasida ortib borayotgan holatlarida noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, ortiqcha vazn va irsiy omillarning roli yoritiladi. Maqolada diabet kasalligini erta aniqlash va uni samarali nazorat qilish zarurligi, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali kasallikni oldini olish choralari asoslab beriladi. Ta‘lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining ushbu jarayondagi o‘rni ham alohida ta‘kidlanadi. Tadqiqot natijalari pediatrlar, ota-onalar va ta‘lim sohasi xodimlari uchun amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the increasing prevalence of diabetes mellitus among children and adolescents. Particular attention is given to the two main types of diabetes—Type 1 (insulin-dependent) and Type 2 (non-insulin-dependent)—with a focus on their clinical distinctions and health implications. The

study highlights the contributing risk factors to the growing incidence of Type 2 diabetes in the younger population, including poor dietary habits, lack of physical activity, overweight and obesity, and genetic predisposition. The importance of early diagnosis and effective disease management is emphasized, along with the necessity of promoting a healthy lifestyle to prevent the onset of the disease. The article also underscores the vital role of educational institutions and community organizations in diabetes prevention and control. The findings offer practical recommendations for pediatricians, parents, and educational professionals aimed at reducing the risk of diabetes and protecting children's health.

Kalit soʻzlar: bolalarda diabet, 1-toifa diabet, 2-toifa diabet, profilaktika, sogʻlom ovqatlanish, jismoniy faollik, semizlik, xavf omillari.

Keywords: Pediatric diabetes, type 1 diabetes, type 2 diabetes, prevention, healthy nutrition, physical activity, obesity, risk factors.

Kirish: Soʻngi yillarda dunyo boʻylab bolalar va oʻsmirlar orasida diabet kasalligining koʻpayishi tibbiy va ijtimoiy muammo sifatida namoyon boʻlmoqda. Anʻanaviy ravishda diabet kattalar kasalligi sifatida qaralgan boʻlsada, hozirgi kunda bolalar orasida ayniqsa 2-toifa diabet holatlari tez surʼatlarda oʻsib bormoqda. Bu holat sogʻliqni saqlash tizimi uchun yangi chaqiriq va bolalar sogʻligʻini himoya qilishda yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Diabet — bu organizmda qondagi shakar (glyukoza) miqdorini tartibga soluvchi insulin gormoni yetishmasligi yoki uning taʼsirining pasayishi natijasida yuzaga keladigan surunkali kasallikdir. Bolalarda uchraydigan diabetning ikki asosiy turi mavjud: 1-toifa diabet, asosan insulinga bogʻliq boʻlib, immun tizimining oʻz tanasiga hujum qilishi natijasida paydo boʻladi, va 2-toifa diabet, koʻproq hayot tarzi omillari — notoʻgʻri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, ortiqcha vazn va semizlik bilan bogʻliq. Ayniqsa, 2-toifa diabetning bolalar orasida koʻpayishi jahon sogʻliqni saqlash tashkilotlari uchun katta tashvish uygʻotmoqda.

Bolalarda diabet kasalligi nafaqat ularning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki uzoq muddatda yurak-qon tomir, buyrak, nerv va ko'z kabi muhim organlarda asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ushbu kasallikni erta bosqichda aniqlash, uni oldini olish choralari ko'rish va bolalarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada bolalar va o'smirlar orasida diabet kasalligining asosiy turlari, xavf omillari, uning oldini olish yo'llari va diabetga qarshi samarali kurashish usullari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, oilalar, maktablar va tibbiyot mutaxassislari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali bolalar salomatligini saqlashdagi ahamiyatli rol ko'rsatib o'tiladi.

Asosiy qism. Diabet turlarining xususiyatlari. vvvBolalarda uchraydigan diabetning asosiy ikki turi mavjud: 1-toifa va 2-toifa diabet. 1-toifa diabet ko'pincha immun tizimining o'z insulinni ishlab chiqaruvchi beta-hujayralariga hujum qilishi natijasida paydo bo'ladi. Bu turdagi diabet asosan bolalik va o'smirlik davrida aniqlanadi va uning davolashida insulin inyeksiyalari muhim ahamiyatga ega. 1-toifa diabet ko'proq genetik va atrof-muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

2-toifa diabet esa asosan organizmdagi metabolizmni buzilishlari bilan bog'liq bo'lib, insulin qarshiligi va insulin yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi. So'nggi yillarda aynan 2-toifa diabet bolalar va o'smirlar orasida tez sur'atlarda oshib bormoqda. Bu holat asosan noto'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn, kam jismoniy faollik va ayrim genetik omillar bilan bog'liq.

Bolalarda diabet rivojlanishida bir nechta xavf omillari mavjud:

Oilaviy tarix: Agar ota-ona yoki yaqin qarindoshlar orasida diabet bo'lsa, bolada kasallik rivojlanish xavfi yuqori.

Noto'g'ri ovqatlanish: Ko'p shakarli, yog'li va tez tayyorlanadigan oziq-ovqatlar iste'moli diabet xavfini oshiradi.

Jismoniy faollikning yetishmasligi: Faol harakat yetmaslik va ko'p vaqtni ekranda o'tkazish metabolizm buzilishlariga olib keladi.

Ortiqcha vazn va semizlik: Bolalarda ortiqcha vazn 2-toifa diabet rivojlanishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Stress va ruhiy holat: Psixologik omillar ham metabolizm va gormonlar muvozanatiga ta'sir qiladi.

Diabetni oldini olish va profilaktika choralari. Bolalar diabetini oldini olish uchun eng samarali yo'l sog'lom turmush tarzini shakllantirishdir. Bunda bolalar ratsionida meva, sabzavot, to'liq donli mahsulotlar, oqsil va sog'lom yog'larni ko'paytirish, shakar va zararli yog'lardan voz kechish zarur. Har kuni kamida 60 daqiqa davomida faol harakat qilish, sport bilan shug'ullanish bolalar uchun muhim. Vaznni sog'lom darajada saqlash uchun dietolog va pediater nazorati ostida ovqatlanish rejasini tuzish. Ota-onalar va o'qituvchilar bolalarga kasallik belgilari, xavf omillari haqida ma'lumot berib, erta aniqlashni ta'minlashlari lozim.

Bolalarda qon shakarini tekshirish va boshqa diagnostik usullar yordamida diabetni erta bosqichda aniqlash mumkin.

Bolalar diabetini boshqarish. Agar bolada diabet aniqlansa, uning hayot sifatini oshirish va asoratlarni oldini olish uchun doimiy tibbiy nazorat, to'g'ri dori-darmon qabul qilish, sog'lom ovqatlanish va jismoniy faoliyat muhimdir. Pediatr va endokrinologlar bilan yaqin hamkorlikda kasallik nazorat qilinishi kerak.

Diabetning asosiy turlari va ularning bolalardagi o'ziga xosligi. Bolalar va o'smirlar orasida uchraydigan qandli diabet asosan ikki asosiy turga bo'linadi: 1-toifa va 2-toifa diabet. **1-toifa diabet** — bu autoimmun xususiyatga ega bo'lgan kasallik bo'lib, unda immun tizimi oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi beta-hujayralarini zararlaydi va yo'q qiladi. Natijada organizmda insulin yetishmovchiligi rivojlanadi, bu esa hayot uchun zarur bo'lgan doimiy insulin terapiyasini talab qiladi.

Mazkur turdagi diabet, odatda, bolalik yoki o'smirlilik davrida boshlanadi va aksariyat hollarda tana vazni yoki hayot tarziga bog'liq emas.

2-toifa diabet esa ko'proq katta yoshdagi shaxslarda uchrashi bilan ajralib turgan bo'lsada, so'nggi yillarda u bolalar orasida ham tez-tez aniqlanmoqda. Ushbu turdagi diabet insulin qarshiligi bilan tavsiflanadi, ya'ni organizm to'qimalarining insulinga nisbatan sezuvchanligi pasayadi. Bolalarda 2-toifa diabetning rivojlanishi ko'pincha noto'g'ri ovqatlanish, past jismoniy faollik darajasi, ortiqcha tana vazni va irsiy omillar bilan bevosita bog'liq. Bu turdagi diabetning yoshlar orasida keng tarqalishi salomatlik uchun jiddiy xavf tug'diradi, chunki u ko'pincha metabolik sindrom, arterial gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari kabi boshqa asoratlar bilan birga kechadi.

Diabetga qarshi kurashishda maktab va jamiyatning roli. Maktablar bolalar sog'lig'ini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Sog'lom ovqatlanishni rag'batlantiruvchi dasturlar, sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kengaytirish, shuningdek, diabet haqida ma'lumot beruvchi treninglar o'tkazish orqali maktablar profilaktika ishlariga hissa qo'shadi. Jamiyatda esa sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi kampaniyalar, ommaviy axborot vositalarida ma'lumot tarqatish diabetga qarshi kurashda samarali vositalardan hisoblanadi.

Xulosa. Bolalar o'rtasida diabet kasalligining ko'payishi bugungi kunda jiddiy xavotir uyg'otmoqda va bu muammoni hal qilish uchun har tomonlama yondashuv zarur. Diabetning 1-toifa va 2-toifa turlari bolalar sog'lig'iga turlicha ta'sir ko'rsatadi, ammo ayniqsa 2-toifa diabetning ortishi — noto'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va kam jismoniy faollik bilan bog'liq bo'lib, bu yosh avlodning kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun diabet kasalligini oldini olish va uning rivojlanishini sekinlashtirish uchun oilalar, maktablar va tibbiyot muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar orasida diabet xavf omillarini aniqlash va erta profilaktika choralarini amalga oshirish orqali kasallikning jiddiy oqibatlarini — yurak-qon tomir kasalliklari,

buyrak yetishmovchiligi, ko‘z kasalliklari va nevrologik muammolar oldini olish mumkin. Sog‘lom ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash va diabet belgilarini erta aniqlash kabi profilaktika choralari bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlashda asosiy o‘rin tutadi.

Shuningdek, maktab va jamoat muassasalari diabet haqida targ‘ibot ishlarini kengaytirishi, bolalar va ota-onalarni kasallik belgilariga oid ma‘lumotlar bilan tanishtirishi, shuningdek, sport va sog‘lom ovqatlanishni rag‘batlantiruvchi dasturlarni amalga oshirishi zarur. Bu orqali nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham diabet kasalligining oldini olish samaradorligi oshadi.

Natijada, bolalar diabetiga qarshi kurashda kompleks yondashuv va barcha sohalarda o‘rtasidagi samarali hamkorlik orqali yosh avlodning salomatligini ta‘minlash, ularning sog‘lom va baxtli hayot kechirishini kafolatlash mumkin. Ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan barcha profilaktika va davolash choralari nafaqat bolalarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki kelajak avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bolalar orasida diabetning ko‘payishi global sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim chaqiriqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2-toifa diabet yosh avlodda ortiqcha vazn va hayot tarzi kasalligi sifatida keng tarqalmoqda. Bu esa nafaqat individual sog‘liq, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bolalarda diabet kasalligini oldini olish uchun keng ko‘lamli strategiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur.

Profilaktika choralari sog‘lom ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, ota-onalar va ta‘lim muassasalari tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, bolalarni diabet haqida muntazam o‘qitish orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Maktablarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ovqatlanish bo‘yicha madaniyatni oshirish va sport faoliyatini kengaytirish diabet xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasida ham bolalarni erta diagnostika qilish va

diabetga qarshi kurashishda yangi texnologiyalarni qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bolalar diabetiga qarshi kurashda ota-onalar faolligi juda muhimdir.

Ular o'z farzandlari uchun sog'lom muhit yaratishi, ratsion va harakat rejimini nazorat qilishi, bolalarni kasallikning xavfi va oldini olish usullari haqida muntazam xabardor qilishi lozim. Shu tarzda ota-ona va bolalar orasida sog'lom odatlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, jamoatchilik va davlat darajasida ham diabet profilaktikasiga doir siyosat va dasturlarni rivojlantirish zarur. Sog'liqni saqlash tizimi tomonidan bolalar diabeti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ommaviy axborot kampaniyalarini olib borish va maktab hamda oilalarni bu jarayonga jalb qilish orqali kasallikning oldini olish samaradorligini oshirish mumkin.

Yakunida aytish mumkinki, bolalar o'rtasida diabetning oldini olish va nazorat qilish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy masala hamdir. Bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yosh avlod sog'lig'ini mustahkamlashga, ularning kelajakda baxtli va faol hayot kechirishiga asos yaratadi. Shu sababli, barcha manfaatdor tomonlar — ota-onalar, shifokorlar, ta'lim muassasalari va hukumat organlari o'zaro hamkorlikda faol ish olib borishi, bolalar sog'lig'ini himoya qilishga jiddiy e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. American Diabetes Association. (2023). *Standards of Medical Care in Diabetes—2023*. Diabetes Care, 46(Supplement_1), S1–S154.
2. Mayer-Davis, E. J., Lawrence, J. M., Dabelea, D., et al. (2017). Incidence Trends of Type 1 and Type 2 Diabetes among Youths, 2002–2012. *New England Journal of Medicine*, 376(15), 1419–1429.
3. World Health Organization. (2021). *Diabetes Fact Sheet*. WHO.
4. Hannon, T. S., Rao, G., & Arslanian, S. A. (2005). Childhood obesity and type 2 diabetes mellitus. *Pediatric Clinics of North America*, 52(4), 1095–1110.

5. Zimmet, P., Alberti, K. G., & Shaw, J. (2001). Global and societal implications of the diabetes epidemic. *Nature*, 414(6865), 782–787.
6. Wolfsdorf, J. I., Glaser, N., Agus, M., et al. (2018). ISPAD Clinical Practice Consensus Guidelines 2018: Diabetic ketoacidosis and hyperglycemic hyperosmolar state. *Pediatric Diabetes*, 19(Suppl 27), 155–177.
7. Juvenile Diabetes Research Foundation. (2020). *Type 1 Diabetes Overview*.
8. American Academy of Pediatrics. (2015). *Type 2 Diabetes in Children and Adolescents*. *Pediatrics*, 135(2), e453–e468.
9. Copeland, K. C., Silverstein, J., Moore, K., et al. (2013). Management of newly diagnosed type 2 diabetes mellitus (T2DM) in children and adolescents. *Pediatrics*, 131(2), 364–382.
10. Danne, T., Bangstad, H. J., Deeb, L., et al. (2014). ISPAD Clinical Practice Consensus Guidelines 2014: Insulin treatment in children and adolescents with diabetes. *Pediatric Diabetes*, 15(Suppl 20), 115–134.
11. Delamater, A. M. (2009). Psychological care of children and adolescents with diabetes. *Pediatric Diabetes*, 10(Suppl 12), 175–184.
12. National Institute of Diabetes and Digestive and Kidney Diseases (NIDDK). (2022). *Diabetes in Children*.
13. Biro, F. M., & Wien, M. (2010). Childhood obesity and adult morbidities. *American Journal of Clinical Nutrition*, 91(5), 1499S–1505S.
14. Ludwig, D. S. (2007). Childhood obesity — The shape of things to come. *New England Journal of Medicine*, 357(23), 2325–2327.
15. Epstein, L. H., Valoski, A., Vara, L., et al. (1994). Ten-year outcomes of behavioral family-based treatment for childhood obesity. *Health Psychology*, 13(5), 373–383.

THE USE OF THE BRAINSTORMING METHOD IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Kodirov Abdushukur Abduxoliq o'g'li

EDU-LINE o'quv markazi asoschisi

O'zbekiston Andijon

qodirovabdushukur1994@gmail.com

ANNOTATION

The article explores the effectiveness of the brainstorming method in English language education through experimental activities conducted with three student groups. By assessing the impact on CEFR and IELTS-based performance metrics, the study highlights the correlation between active engagement and improved learning outcomes.

Keywords: Brainstorming, English language teaching, CEFR, IELTS, grammar errors, educational methods.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается эффективность метода мозгового штурма в обучении английскому языку. На основе экспериментов, проведённых с тремя группами учащихся, показано влияние данного метода на результаты по шкале CEFR и IELTS.

Ключевые слова: мозговой штурм, преподавание английского языка, CEFR, IELTS, грамматические ошибки, образовательные методы.

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz tilini o'rgatishda aqliy hujum (brainstorming) metodining samaradorligi o'rganilgan. Uchta guruhda o'tkazilgan tajribalar asosida ushbu metodning CEFR va IELTS ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Aqliy hujum, ingliz tili oʻqitish, CEFR, IELTS, grammatik xatolar, taʼlim metodlari.

1. INTRODUCTION

Modern language education demands creative and active learning strategies. One such strategy is the brainstorming method, which encourages students to generate ideas freely, enhances participation, and fosters critical thinking. This study evaluates the effect of brainstorming in three classrooms with 20, 15, and 10 students, focusing on grammar accuracy and exam performance.

2. METHODOLOGY

Three different classrooms were selected:

- Group A: 20 students
- Group B: 15 students
- Group C: 10 students

Procedure:

- All groups participated in a 4-week lesson series where brainstorming was the main teaching technique.
- Initial and final CEFR-based assessments were conducted.
- Students' written outputs were analyzed for grammar errors.
- IELTS-style writing tasks were given to evaluate writing performance.

Evaluation Metrics:

- Number of grammar errors (before vs. after)
- CEFR level increase
- Estimated IELTS band improvements

3. RESULTS

This study employed a mixed method approach that involves both collecting and analyzing quantitative and qualitative data. The population in this study constitutes 321 Form Four students from an urban secondary school in Kuching. The students were asked to complete a self-designed questionnaire consisting of three sections. Section A is for demographic details, such as gender, age, and the English grade for PMR (Penilaian Menengah Rendah), which is a public exam for Form Three students. Section B is for the types of brainstorming activities used in their speaking lessons. Section C consists of 20 items to state their perceptions on the brainstorming activities used in the classroom. The items are constructed based on a five-point Likert scale ranging from 1 (Strongly Disagree) to 5 (Strongly Agree). The above quantitative data were supplemented by qualitative data from classroom observations and semi-structured interviews. Classroom observations were carried out on three different classes to capture the behaviors of students during the brainstorming activities. An observation checklist was used for each of the three classes to record the students' participation at various stages of the brainstorming activities. Finally, three English teachers were subjected to semi-structured interviews soon after the lesson observations. Six open-ended questions were prepared as the interview guide. The interviews were conducted to gather additional information on the teacher's opinions about the brainstorming activities and the experiences involved[11].

Table 1. Grammar Error Reduction

Group	Avg. Errors Before	Avg. Errors After	% Reduction
A (20 students)	18.2	11.5	36.8%
B (15 students)	17.6	8.9	49.4%
C (10 students)	16.9	7.2	57.3%

Table 2. CEFR Level Improvement

Group	Initial Level	Final Level
A	B1	B1+/B2
B	B1	B2
C	B1	B2+

Table 3. Estimated IELTS Band Gains

Group	Pre-Test Band	Post-Test Band	Band Gain
A	4.5	5.0	+0.5
B	4.5	5.5	+1.0
C	4.5	6.0	+1.5

4. DISCUSSION

The results indicate that smaller classroom sizes (Group C) benefit more from brainstorming due to higher individual participation and focus. The method significantly reduced grammar mistakes and increased IELTS band scores, especially in writing. Brainstorming encourages spontaneous use of language structures, aiding fluency and vocabulary use. However, large classes (Group A) face participation limitations that slightly affect the depth of engagement.

5. CONCLUSION

The brainstorming method proves to be a powerful tool in English language instruction, especially in smaller group settings. It enhances communication, confidence, and academic outcomes. Future studies could examine its long-term impact on listening and speaking components of language acquisition.

REFERENCES

- [1] Osborn, A.F. (1953). *Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Problem-Solving*. Charles Scribner's Sons.
- [2] Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
- [3] Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.
- [4] Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
- [5] Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.
- [6] Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Pearson Longman.
- [7] Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR)*.
- [8] IELTS Official Guide. (2022). *IELTS Band Descriptors and Practice Materials*. Cambridge Assessment.
- [9] Ur, P. (1996). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge University Press.
- [10] Dornyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
- [11] Unin, N., & Bearing, P. (2016). Brainstorming as a Way to Approach Student-centered Learning in the ESL Classroom. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 224, 605-612.
- [12] Al Masri, A. (2019). The Impact of Using Brainstorming in the Development of Creative Thinking and Achievement in the English Language of the 10th Grade Students at King Abdullah II Schools of Excellence in Amman. *International Education Studies*, 12(2), 82-92.
- [13] Al Masri, A. A., & Smadi, M. F. (2023). The Effect of Using Brainstorming on Developing Innovative Thinking and Achievement in Teaching English Language Students. *Asian Social Science*, 19(6), 72-83.

1	ИССЛЕДОВАНИЕ И РАЗРАБОТКА НОВОГО СИЛОВОГО МЕТОДА ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ВНУТРЕННИХ НАПРЯЖЕНИЙ В КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ И ЛАКОКРАСОЧНЫХ ПОКРЫТИЯХ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В МАШИНОСТРОЕНИИ <i>С.С.Негматов, Т.У.Улмаков, Н.С.Абед, Б.М.Тожибоев</i>	3
2	FAOLLASHTIRILGAN MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARI ASOSIDA DONADOR FOSFORLI O'G'IT OLIH TEXNOLOGIYASI <i>U.M.Turdialiyev Z.M. Oripova</i>	12
3	PORTLAND CEMENT ISHLAB CHIQARISHDA XOM ASHYOGA QO'YILADIGAN TALABLARNI TEKSHIRISH <i>Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna Otaqo 'ziyev Akramjon Adaxamjonovich</i>	16
4	4-SINF "TARBIYA" DARS JARAYONIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI <i>Rajabova Xurshida Hakimovna</i>	20
5	ROSSIYA IMPERIYASINING FARG'ONA VILOYATIDAGI MOLIYA VA SOLIQ SIYOSATI <i>Adashaliyev Azizbek Zafarjon o'g'li</i>	27
6	KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH – PROFESSIONAL TA'LIMDA HURFIKRLILIK GAROVI. <i>Xazratqulova Sanobar Saidmurod qizi</i>	36
7	MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MEDICAL UNIVERSITIES: THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE TEACHING AND SIMULATION METHODS <i>Ergashev Bekzod</i>	41
8	ECONOMIC EFFICIENCY OF LIGHTWEIGHT POROUS CONCRETE PRODUCTION USING LOCAL RAW MATERIALS AND INDUSTRIAL WASTE IN UZBEKISTAN <i>Murodilova Mukhayyo Alisher qizi</i>	51
9	CREATIVE AND CRITICAL THINKING FORMATION – THE FOUNDATION OF FREEDOM OF THOUGHT IN PROFESSIONAL EDUCATION <i>Sanobar Saidmurod Qizi Khazratqulova</i>	61

10	OLIY TA'LIM MUASSSALARIDA XARA SUVO`TLAR BO`LIMI MAVZUSINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI (AMALIY MASHG`ULOTLAR MISOLIDA) <i>Qayumova Mohinur Karim qizi</i>	63
11	GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY TA'SIRI VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI <i>Inombekov Ozodbek Nasibilloevich</i>	75
12	TURKISTON JADIDLARINING MA'RIFIY G'OYALARI ULARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA DINIY QARASHLARIGA TA'SIRI <i>Inombekov Ozodbek Nasibilloevich</i>	80
13	PSIXOLOGIK SALOMATLIK VA TA'LIM O'QUVCHILARDA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TA'LIMNI RO'LI <i>Inombekov Ozodbek Nasibilloevich</i>	87
14	O'ZBEKISTON ARXELOGIYASI: MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIM <i>Inombekov Ozodbek Nasibilloevich</i>	93
15	ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI <i>Mahmudjonova Sarvinoz Bahodirjon qizi Ibragimov Farhod</i>	97
16	VIRTUAL MUZEYLAR VA ULARNING AHAMIYATI <i>Rahimova Zeboxon O'ktam qizi</i>	105
17	A VERSATILE DEVICE ADAPTABLE TO VARIOUS INTENSIVE CURRENT AND ROW SPACING SCHEMES IN ORCHARDS <i>Foziljonova Barnokhon Isroiljon qizi</i>	113
18	DEVELOPING INTERACTIVE TEACHING METHODS THROUGH NATIONAL GAMES (ON THE EXAMPLE OF KARAKALPAK NATIONAL GAMES) <i>Jaksimuratov Azamat Bekmurat uli</i>	118
19	MAKTABGACHA TA'LIMDA MARKAZLAR FAOLYATIDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR <i>Madatova Dilnura Zohidjon qizi</i>	123
20	DUO VA TILAKLARNING RUHIY VA MA'NAVIY TA'SIRI <i>Mutalibjonov Asadillo.</i>	128
21	EKOLOGIK MADANIYAT-SALOMATLIK GAROVI <i>Ergashev Sardorbek Dadxon O'g'li</i>	131

22	SANOAT CHIQINDILARI VA ULARNI QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIDA TUTGAN O'RNI <i>M.A.Murodilova</i>	139
23	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI <i>Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi</i>	146
24	MASHINALI O'QITISHNING ASOSIY TURLARI VA O'QITISH MODELI <i>Xasanova Mohichexra Farxod qizi</i>	151
25	SANOQ SISTEMALARI <i>Qurbonqulova Saodat Burxon qizi</i>	157
26	GLOBAL ECONOMIC INTEGRATION AND ITS ADVANTAGES <i>Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi</i>	162
27	MOBIL ILOVALAR ORQALI ZAMONAVIY SAVDO MODELI <i>Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi</i>	167
28	KRIPTOVALYUTALAR VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI <i>Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi</i>	172
29	SUN'IY INTELLEKT VA UNING AVTOMATLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi</i>	178
30	KERAMIK KOMPOZITSION MATERIALLARNING KOMPONENTLARINI TANLASH <i>G. K. Otaboyeva</i>	184
31	BOLALAR O'RTASIDA DIABET VA UNING OLDINI OLISH <i>Yaqubova Azimaxon Raximjon qizi</i> <i>Chalaboyeva Zilolaxon</i>	192
32	THE USE OF THE BRAINSTORMING METHOD IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING <i>Kodirov Abdushukur Abduxoliq o'g'li</i>	200